



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

**Albekov Sh.A.
Mirzakulov A.G.**

CROSSFIT

**(IIV Malaka oshirish instituti tinglovchilarining jismoniy tayyorgarlik
darajasini oshirish uchun mo'ljallangan kompleks mashqlar tizimi)**

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT

UO‘K 7967012.68(575.1)

BBK 75.15

A-45

Taqrizchilar:

A.Sh.Usmanov - O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Jismoniy tayyorgarlik sikli boshlig‘i, polkovnik;

M.X.Mirjamolov - Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti direktori;

.....

.....

Albekov Sh.A.

Mirzakulov A.G.

A-45 Crossfit: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2024. – 134 bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada Crossfitning tushunchasi va atamalari keng yoritilgan, shuningdek Crossfit tarixi va majmualari ko‘rsatilgan bo‘lib, mashg‘ulotlarning nozik, foydali va zararli tomonlarini tushunishga yordam beradigan turli nazari va amaliy jihatlar ko‘rib chiqilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ta’lim muassasalari tinglovchi va kursantlari hamda ichki ishlar o‘rganlari amaliyot xodimlari uchun mo‘ljallangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti boshlig‘ining 2024-yil “25”-martdagи 66-son buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 7967012.68(575.1)

© Albekov Shokir, 2024

© Mirzakulov Akrom, 2024

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2024

KIRISH

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida hukumat tomonidan qaratilayotgan e'tibor juda kattadir. Jumladan, tuman (shahar)larda mahalla va qolaversa har bir oilada, shuningdek, professional va oliv ta'lim, umumiy o'rta, o'rta-maxsus va maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda boshqa idora va korxonalarda, o'quvchi yoshlar va boshqa qatlam aholi uchun jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga keng shart-sharoitlar yaratilmoqda, shu bilan birga mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida muntazam ravishda ommaviy sport musobaqalari o'tkazilib kelinayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabr kunidagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-sonli farmonida¹ belgilab berilgan talablar ijroga qaratilayotganligidan dalolatdir. Bunga yorqin misol tariqasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini tatbiq etish maqsadida, mamlakatimizning har bir go'shasida barpo etilayotgan "Workout" maydonchalari, piyodalar va velosiped hamda "Salomatlik yo'laklari"ni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, hozirgi kunda qurilayotgan zamonaviy sport majmualaridan shuni anglashimiz mumkinki mamlakatimiz prezidenti tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan keng ko'lami islohotlari sababli bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabat sezilarli darajada o'zgardi.

Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida katta o'zgarishlar kuzatilayotganligi ushbu yo'nalishdagi ishlar shiddat bilan rivojlanib borayotganligidan dalolatdir. Bunga yorqin misol qilib, 2024-yil Fransiyada o'tkazilgan Parij-24 XXXIII yozgi olimpiya o'yinlarida sportchilarimiz tomonidan qayd etilgan tarixiy natijani ko'rsatishimiz mumkin. Yurtdoshlarimiz 3 ta bronza, 2 ta kumush va 8 ta oltin medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi. Shuningdek, Parijda o'tgan XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston paralimpiya terma jamoasi yuksak iroda namoyish etib, umumjamoa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabr kunidagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-sonli farmoni.

hisobida 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza medalini (jami 26 ta) qo‘lga kiritib, medallar soni bo‘yicha jadvalda 13-o‘rindan joy oldi, Osiyoda esa Xitoy va Yaponiyadan keyin uchinchi bo‘ldi. Bu - mamlakat tarixidagi eng yaxshi natijadir. Shu bilan birga sportchilarimiz va parasportchilarimiz tomonidan bir necha jahon rekordlarini yangilanganini ham g’urur va iftixon bilan e’tirof etishimiz lozim.

Sport turlari orasida “Crossfit” sport turi ham juda mazmunli va qiziqarli sport turlaridan biri sifatida taraqqiy etmoqda. Ushbu sport turi 2000-yilda tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda dunyoda o‘z nufuziga ega bo‘lgan, minglab sport ixlosmandlarini o‘ziga rom etib birlashtirgan. Mazkur sport turi “Fitness” asosida tashkil topgan bo‘lib, aynan bir sohaga qaratilmaganligi, balki odamning umumiyligi jismoniy tayyorgarligini va barcha jismoniy sifatlarini bir maromda (uyg‘unlikda) rivojlantirishga xizmat qiladigan jismoniy faoliyat turi sifatida namoyon bo‘layotganligi diqqatga sazovordir.

Hozirgi kunda jismoniy tayyorgarlik va sport Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutmoqda. Yurt posbonlarining ma’naviyatini yuksaltirish hamda ma’rifiy salohiyatini oshirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi, shuningdek jamiyatimizdagi barqarorlikni saqlashda, jinoyatchilik bilan kurashishda va huquqbazarliklarni oldini olishda xodimlarning jangovar va jismoniy tayyorgarlik holatini ham lozim darajada takomillashtirib borish xalqimiz osoyishtaligiga xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, yurtimizda huquq tartibot organlari xodimlari tomonidan huquqbazarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda sog‘lom va barkamol, har tomonlama yetuk, yurt tinchligi va osoyishtaligi, jamiyat farovonligi va ravnaqiga munosib hissa qo‘sha oladigan bo‘lib yetishishida jismoniy tayyorgarlik darjasini yuqori saviyada bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Crossfit o‘zining ko‘p qirraliligi va qulayligi bilan turli yoshdagi va tayyorgarlik darajasidagi odamlarni o‘ziga rom etgan. Ushbu sport turi bilan ixtisoslashtirilgan xonalarda ham, maxsus zallarda ham, uyda ham shug‘ullanish mumkin, bu ko‘p odamlarga shaxsiy maqsadlari va jismoniy imkoniyatlaridan qat’i nazar, uni hayot tarziga qo‘shish imkonini beradi. Shu bois, soha vakillari tomonidan yuqoridagi

yuklatilgan vazifalarni yuqori saviyada bajarishlari uchun jismonan sog‘lom bo‘lishini, o‘zini va fuqarolarni himoya qilishda qo‘l jangi va jangovar sambo usullaridan mohirona foydalana olishini taqozo etadi. Ushbu yakkakurash sport turlarida jismoniy sifatlarning o‘rni beqiyosdir. Yuqoridagilarni inobatga olib, Ichki ishlar vazirligi rahbariyati tomonidan xodimlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan hamda bir qator mashqlar va majmualarni o‘z ichiga olgan tegishli buyruqlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ijroga qaratilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada yoritilgan ma’lumotlar Ichki ishlar organlari xodimlari uchun foydali bo‘lishi mumkin, masalan:

1. Jismoniy tayyorgarlik: crossfit kuch, chidamlilik, koordinatsiya, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezlikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli mashqlarni o‘z ichiga oladi. Ichki ishlar organlari xodimlari uchun bunday fazilatlar o‘z kasbiy burchlarini bajarish, jumladan, o‘zini himoya qilish, huquqbuzarlarni ushslash va tezkor tadbirdorda ishtirok etish uchun muhim ahamiyatga ega.

2. Stressga chidamlilik: crossfit mashqlarini muntazam bajarish nafaqat jismoniy, balki psixologik barqarorlikni ham rivojlantirishga yordam beradi. Jismoniy to‘sislarni doimiy ravishda yengib o‘tish sizni qiyinchiliklar va stressli vaziyatlarni yengishga o‘rgatadi, bu ayniqsa huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilish uchun muhimdir.

3. Sog‘lom turmush tarzi: crossfitni sport intizomi sifatida ishlatish muntazam jismoniy faoliyat odatini shakllantirishga yordam beradi, bu esa xodimlarning umumiyl salomatligiga ta’sir qiladi. Bu kasalliklarning kamayishiga va psixoemotsional holatning yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

4. Mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish: o‘quv qo‘llanma eng samarali shug‘ullanish usullarini tushunish uchun foydali manba bo‘lishi mumkin. Bu Ichki ishlar organlari xodimlariga qisqa vaqt ichida eng yaxshi natijalarga erishadigan tarzda mashg‘ulotlar jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

5. Jismoniy tayyorgarlik darajasini saqlash: muntazam ravishda crossfit bilan shug‘ullanish xodimlarni mukammal jismoniy holatda saqlashga qodir, bu ularning

vazifalarini bajarish uchun juda muhimdir, ayniqsa yuqori stress va tezkor javob berish zarurati tug‘ilgan bir paytda.

Shunday qilib, ushbu qo‘lyozma insonning jismoniy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishi, ruhiy salomatlikni yaxshilashi va Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoalardagi samarali hamkorlikni rivojlantirishi mumkin. Mazkur o‘quv qo‘llanma nafaqat kursantlarning balki butun soha xodimlarining ushbu sport turi to‘g‘risida tushunchalarga ega bo‘lishlari va umumiy jismoniy tayyorgarliklarini oshirish maqsadida, murabbiy yordamida va mustaqil tarzda “Crossfit” sport turi bilan shug‘ullanishlari uchun ishlab chiqilgan.

Ushbu qo‘llanmada biz crossfitning asosiy tamoyillarini, uning metodologiyasi va strategiyalarini, shuningdek, maksimal natijalarga erishishga yordam beradigan asosiy mashqlar va usullarni ko‘rib chiqamiz, nazariya va amaliyotni o‘rganamiz, shuningdek, to‘g‘ri ovqatlanish, tiklanish va o‘qitish psixologiyasi bo‘yicha maslahatlar bilan o‘rtoqlashamiz.

Mazkur o‘quv qo‘llanma yangi shug‘ullanishini boshlaganlar va tajribali sportchilar uchun mo‘ljallangan. Umid qilamizki, bu sizni yangi yutuqlarga ilhomlantiradi, jismoniy tayyorgarligingizni yaxshilashga yordam beradi.

I BOB. “CROSSFIT” SPORT TURINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Crossfit sport turi tushunchasi

Crossfit - shunchaki mashg‘ulot emas, u butun bir falsafa, turmush tarzi va kuchli va funksional sport elementlarini birlashtirgan noyob tizimdir. 2000-yillarning boshlariida paydo bo‘lganidan beri qisqa vaqt ichida crossfit butun dunyo bo‘ylab mashhurlikka erishdi va fitnesning eng mashhur yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu sport turi inson tanasining anatomik tuzilishini, umumiyl jismoniy tayyorgarligini hamda salomatligini yaxshilash g‘oyasini targ‘ib qiladi.

Mazkur sport turining paydo bo‘lish tarixi AQShlik gimnastikachi va taniqli fitnes murabbiyi Greg Glassman (1956-yilning 22-iyulida AQShning Kaliforniya Shtati San-Diego okrugida tug‘ilgan) va uning sobiq rafiqasi Lauren Jenaylarga tegishlidir. Fitnes bo‘yicha murabbiylik faoliyati bilan shug‘ullangan G.Glassman 90-yillarda faoliyatini politsiya xodimlarining jismoniy tayyorgarligini oshirish bilan davom ettiradi. Crossfit sportiga Greg Glassman va uning rafiqasi tomonidan 1996-yilda asos solingan. Lekin, ularning ushbu g‘oyalari 4 yildan so‘ng amalgalashirilgan. Aynan shu vaqt ichida faqat bitta jismoniy sifatda ustunlik qilishdan ko‘ra, umumiyl jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan bir qator yuqori intensiv mashg‘ulotlardan foydalangan. Greg Glassman mazkur sport turini 2000-yilda korporatsiya sifatida sertifikatdan o‘tkazadi hamda shaxsiy sport zalini tashkillashtirgandan so‘ng, 2000-yilda crossfit konsepsiysi yaratiladi.

Mazkur sport turiga ixtisoslashtirilgan sport zallarining soni tez orada o‘sib bordi: jumladan 2005-yilda 13 ta, 2016-yilda 13000 dan ziyod, 2018-yilda 15500 ga yaqin crossfit sport zallari ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Uning dunyo bo‘ylab a’zolari soni ikki milliondan besh milliongacha bo‘lgan. 2023-yilning oktabr oyi holatiga ko‘ra 15000 dan ortiq sport zallari mavjud.

Dunyoda o‘z obro‘yiga va trendiga ega bo‘lgan yirik kompaniyalardan biri “Reebok” crossfit bilan 2010-yilning 25-sentabrida o‘zaro hamkorlik shartnomasini imzoladilar. Hamkorlik 10 yilga mo‘ljallangan edi, natijada 2011-yilda crossfit sport turi musobaqalarida birinchi o‘rin uchun mukofot puli 250000

dollargacha ko‘tarildi, bu o‘tgan yilga nisbatan o‘n barobarga oshgan. Biroq, 2020-yilning iyun oyida “Reebok” crossfit bilan o‘zaro hamkorlikni muddatidan oldin tugatdi.

2007-yilning 30-iyul kuni AQShning Kaliforniya shtatida birinchi crossfit o‘yinlari o‘tkazilgan. Musobaqada 70 nafar sportchi ishtirok etib, shulardan g‘oliblikni James Fitzgerald erkaklar o‘rtasida, ayollar o‘rtasida esa Jolie Gentry qo‘lga kiritgan.

Yurtimizda birinchi bor 2019-yilning 30-31 mart kunlari Toshkent shahrida crossfit musobaqalari tashkil etilgan. “Jismoniy jihatdan eng yaxshi tayyorgarlikka ega atlet” maqomi uchun musobaqalar o‘tkazilgan. Ushbu musobaqada 64 nafar sportchi ishtirokida saralash bahslari o‘tkazilgan edi. Ulardan 33 nafari keyingi bosqichga yo‘l olgan. Final bosqichida Igor Fillipov erkaklar o‘rtasida va Gavhar Mirzayeva ayollar o‘rtasida birinchilikni qo‘lga kiritishgan.

2021-yil 23-aprel kuni Milliy gvardiya qo‘mondonining tashabbusi bilan Respublikamizda Funksional ko‘pkurash (Crossfit) sport turi bo‘yicha ilk bor Federatsiya tashkil etildi. Federatsiya raisi O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya qo‘mondoni o‘rinbosari Ma’murjon G‘aniyev hisoblanadi.

2021-yil 29-iyul kuni Samarqand shahrida viloyat huquqni muhofaza qiluvchi organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlar o‘rtasida crossfit sport turi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi. Shu yilning avgust oyida Milliy gvardiya Buxoro viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi boshlig‘i birinchiligi kubogi tashkil etildi. 2022-yil Farg‘ona viloyatida Ichki ishlar organlari xodimlari o‘rtasida viloyat birinchiligi o‘tkazildi. Joriy yilning 15-16-oktabr kunlari O‘zbekiston funksional ko‘pkurash federatsiyasi hamda Milliy gvardiya boshchiligidagi funksional ko‘pkurash bo‘yicha respublika yopiq championati bo‘lib o‘tdi. Bu o‘z navbatida Respublikamizda ham ushbu sport turiga jiddiy e’tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

2007-yildan boshlab har yili Xalqaro crossfit musobaqalari o‘tkazilib kelinmoqda. Yildan yilga ishtirokchilar soni va homiylik qilish istagini bildirganlarning soni tobora ortib bormoqda. Barcha ishtirokchilar o‘yin

boshlanishidan bir necha soat oldin musobaqa mashg‘ulotlari dasturi haqida bilib olishlari nazarda tutilgan. Ko‘pincha tashkilotchilar crossfitga xos bo‘lmagan yangi mashqlarni qo‘sadilar. G‘olib “Dunyodagi eng tayyor odam” unvonini oladi, bu barcha ishtirokchilarning har qanday yuklamalarga tayyor bo‘lishi zarurligini anglatadi.

1.2. Crossfit sport turiga ta’rif

Crossfit - bu turli xil mashqlardan iborat majmualarni o‘z ichiga olgan zamonaviy jismoniy tayyorgarlik tizimidir. U erkaklar, ayollar va bolalar uchun mos bo‘lgan noyob faoliyat turini taklif etadi. Crossfit ingliz tilida “Cross” - kesishish, jadallashtirish yoki qovushtirish degan ma’noni, “Fit” - esa fitnes ma’nosini beradi. Qisqacha qilib aytganda, “qovushtirilgan fitnes” ma’nosini kelib chiqadi. Crossfit - bu atletika, kuch mashqlari va funksional mashg‘ulotlar elementlarini o‘z ichiga olgan o‘quv tizimi. U turli xil jismoniy faoliyatning maksimal miqdorini o‘z ichiga olishi uchun mo‘ljallangan. Bu crossfitni butun tanani mashq qilish va insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydali qiladi. Crossfit asosan insonning kuch, chidamlilik tezlik, egiluvchanlik, koordinatsiya, aniqlik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarni oshirishga hamda rivojlantirishga, shuningdek yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining ishlashini yaxshilashga yo‘naltirilgan sport turidir.

Crossfit – musobaqali sport turi hisoblanib, uning musobaqlari butun jahonda o‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu sport turi doimiy ravishda harakatlar funksiyasini yuqori intensiv ravishda, turli vaqt oralig‘ida bajarilishini o‘zgartirib borishi bilan xarakterlanadi. Bu mashqlar majmui 15 daqiqadan 60 daqiqagacha bir vaqtning o‘zida turli mushak guruhlariga ta’sir etuvchi jismoniy mashqlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Mashqlar o‘rtasida dam olish mumkin emas, har bir mashg‘ulotni siz belgilangan vaqt oralig‘ida bajarishingiz kerak bo‘ladi. Inson ajratilgan vaqt ichida har aylanada bir nechta mashqlarni 3-4 marotaba yoki undan ko‘proq takrorlashi lozim. Bu esa uning nafas olish tizimini rivojlantirish,

yurakdag'i yukni oshirish va mushak to'qimalariga yuklamani maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Crossfit – o‘z mashg‘ulotlarini diversifikasiya qilishni va optimal jismoniy darajaga erishishni xohlaydigan odamlar uchun ideal sport turidir. U barcha yoshdag'i erkaklar va ayollar, shuningdek, bolalar va o‘smirlar uchun to‘g‘ri keladi. Shuningdek, crossfit har bir ishtirokchiga jismoniy imkoniyatlari va maqsadlariga muvofiq mashq qilish imkonini beradi. Crossfit sporti barcha uchun qulay bo‘lib, u bilan shug‘ullanish uchun sport zaliga borish, biron bir aniq jismoniy tayyorgarlik yoki ma’lumotlarga ega bo‘lish shart emas. Crossfit dasturlari turli mashqlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Barchasi shug‘ullanuvchining o‘ziga bog‘liq. Bu mashg‘ulotlar doimgi o‘tirib turishlar, qo‘llarga tayangan holda qo‘llarni bukib yozishlar, joyida yugurish yoki sakrash mashqlari bo‘lishi mumkin. Inson yoshi, jinsi, sog‘lig‘ini, jismoniy holatini inobatga olgan holda mashg‘ulotlar yuklamasini va shiddatini o‘zi belgilab oladi. Vaqt o‘tgan sayin mashqlar sonini yoki bajarilish vaqtini ko‘paytirib borishingiz mumkin. Agar sog‘ligingizda muammolar bo‘lsa, crossfit uchun mashqlarni tibbiyot xodimining tavsiyasiga ko‘ra belgilaganingiz ma’qul. Bundan tashqari, mashg‘ulot uchun siz istalgan vaqtda, xona jihozlaridan yoki yerdan foydalanishingiz, boshlanishida har bir aylanma orasida 1-2 daqiqa tanaffus qilishingiz mumkin. Ammo yuqorida aytilganidek, crossfit sportida dam olish vaqtি belgilanmaydi. Shu sababli mashg‘ulot shiddatini sekinlashtirishingiz va borgan sari shiddatni oshirib borishingiz maqsadga muvofiqdir. Agar siz crossfit bilan astoydil shug‘ullanmoqchi bo‘lsangiz, unda pauerlifting, gimnastika, og‘ir atletika, yengil atletika, jang san’ati va boshqa sport turlaridan mashqlarni bajarishga tayyor bo‘ling.²

Crossfitning maqsadi nafaqat umumiy jismoniy tayyorgarligingizni yaxshilash, balki sizni kuchliroq, bardoshli, egiluvchan, tezroq va faolroq qilishdir. Agar mashg‘ulotlar noto‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa, unda siz nafaqat maqsadlaringizga erisha olmaysiz, balki sog‘lig‘ingizni ham yomonlashtirasiz. Ushbu fikrlarga

² Kuliyev R.S., Maqsudova Q.A., Raxmatullayeva L.A., Funksional ko‘pkurash.//O‘quv qo‘llanma. T.: 2021-yil.

asoslanib, guruhda yoki hech bo‘lmaganda sertifikatlangan o‘qituvchi-murabbiy bilan mashg‘ulotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Aytgancha, guruh mashg‘ulotlari individual mashg‘ulotlarga qaraganda ancha samarali va Crossfit musobaqalari ushbu turdagи fitnes tarafdlorlari uchun kuchli motivatsiyadir.³

Sportdagi har qanday fitnes yo‘nalishi kabi crossfit inson tanasini samarali qurish ishini bajaradi, biroq boshqalarga nisbatan crossfit mukammal sportchini dunyodagi eng kuchli insonni yaratishga qaratilgan. Shu bois, hozirgi kunda crossfit mashqlari jangovar sport turlari bilan shug‘ullanishda, jismoniy tayyorgarlik birinchi darajada turadigan kasb sohalari (maxsus bo‘linmalar, o‘t o‘chiruvchilar) xodimlarini tayyorlashda muntazam ishlatiladi.

Qoidaga ko‘ra crossfitda o‘tirib turishlar, turnikda tortinish, qo‘llarni bukib yozish, og‘irliklarni ko‘tarish mashqlari, tortishlar va surishlar hamda boshqa mushaklarni faol ishlashga jalb qiluvchi mashqlar qo‘llaniladi. Biroq, asosiy mashqlarga qo‘srimcha qilib, erkin vaznli mashqlardan foydalanishga ham ruxsat etiladi, bunda barcha bir xil mashqlarni faqat og‘irliklarsiz (yerga tayangan holda qo‘llarni bukish va yozish, sakrash, tortilish, cho‘zish va h.k.) aerobik mashqlar, masalan, yugurish, eshkak eshish, suzish, velosipedda yurish, arg‘imchoqda sakrash va boshqalar. Bu yerda yuk ham, kuch ham aerobik (chunki kardio mashg‘ulot mavjud). Bundan tashqari, turli xil sport turlari bo‘yicha mashqlar ham qo‘llaniladi (tosh (giry) ko‘tarish, badiiy gimnastika, eshkak eshish, og‘ir atletika, yengil atletika va boshqalar), bu yerda mashqlar yuqori intensivlik bilan bajariladi.

1.3. Crossfit mashg‘uloti asoslari

Crossfit asoslari uchta asosiy mashg‘ulot turlari quyidagilar: kardioyuklama, gimnastika mashqlari va erkin og‘irliklardan iborat.

Kardioyuklama - bu yurak-qon tomir tizimining faoliyatini yaxshilashga qaratilgan jismoniy faoliyat turi bo‘lib, yurak urish tezligini oshiradigan mashqlarni o‘z ichiga oladi.

³Burxonov B.H. Crossfit mashqlari yordamida ichki ishlар organlari xodimlarining umumiy jismoniy tayyorgarliklarini oshirish.//O‘quv uslubiy qo‘llanma, T-2023.

Kardioyuklamalarning turlari:

- Aerobik mashqlar: yugurish, suzish, velosiped haydash va yurish.
- Intervalli mashg‘ulotlar: yuqori intensiv va past intensiv bosqichlarni almashтирish.
- Guruh bo‘lib mashg‘ulot o‘tish: “zumba”, “step aerobika”.

Kardiyo yuklamalarning afzallikkлari:

- Chidamlilikni oshiradi;
- Kaloriyalarni yoqish va vaznni nazorat qilishda yordam beradi;
- Yurak va qon tomirlarini mustahkamlaydi.
- Quvvat darajasini oshiradi va kayfiyatni yaxshilaydi.

Mashg‘ulotlar bo‘yicha tavsiyalar:

- Umumiy salomatlik uchun: haftasiga 150 daqiqa o‘rtacha yoki 75 daqiqa kuchli faollik;
- Motivatsiyani saqlab qolish uchun o‘zingiz yoqtirgan mashqlarni tanlang;
- Mashg‘ulotlarning intensivligi va davomiyligini asta-sekin oshiring;

Tanangizni tinglang. Agar o‘zingizni charchagan yoki og‘riq his qilsangiz, o‘zingizga tiklanish uchun vaqt bering.

Kardio mashqlarini kuch mashqlari bilan birlashtirib, siz ajoyib jismoniy natijalarga erishishingiz mumkin.

Aerobika - bu kardiorespirator chidamlilik va umumiy salomatlikni yaxshilaydigan musiqiy hamrohlikdan foydalangan holda ritmik harakatlarga asoslangan jismoniy faoliyat shakli. Aerobika uch turga bo‘linadi. *Guruh aerobikasi*, ya’ni guruh o‘qituvchisi boshchiligidagi mashg‘ulotlar ko‘pincha qadamlar, raqlar va turli mashqlarni o‘z ichiga oladi, *step aerobika*, ishtirokchilar ko‘tariladigan va tushadigan maxsus platformadan foydalanishdan iborat bo‘lsa, raqs aerobikasi bu raqs va aerobik harakatlarning kombinatsiyasi, masalan, zumba bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, aerobikaning afzallikkлari shundaki, u chidamlilikni va yurak kuchini oshiradi, ortiqcha vaznni yo‘qotadi va metabolizmni yaxshilaydi,

kayfiyatni yaxshilaydi va stressni kamaytiradi, egiluvchanlik va koordinatsiyani rivojlantiradi.

Aerobika nafaqat sog‘lom bo‘lishning samarali usuli, balki jamoaviy tarzda bajarilishi mumkin bo‘lgan qiziqarli faoliyatdir. Aqliy jihatdan tuzilgan aerobika dasturi evaziga quyidagilar sodir bo‘ladi:

- to‘g‘ri ovqatlanish tartibi (parhez) evaziga intensiv ravishda yog‘larni yonishi oqibatida ortiqcha vazndan xalos bo‘lish (crossfitni ozish niyatida bo‘lganlar orasida ommabop bo‘lishining sabablaridan biri);
- kislorodni olinishi va ishlatilishini yaxshilash uchun o‘pka sig‘imini muntazam ravishda kengayib borishi; yurak mushaklarini mustahkamlanishi oqibatida qon aylanish tizimini yaxshilanishi;
- kardio va boshqa jismoniy yuklamalar infarkt, insult, oq qon kasalliklarini paydo bo‘lishini oldini olib, arterial qon bosimi barqarorligini ta’minlaydi.

Gimnastika (o‘z tana og‘irligi mashqlari) - qo‘srimcha jihozlarsiz turli mashqlarni bajarish uchun o‘z mushaklaridan foydalanadigan jismoniy faoliyat shakli. Gimnastika bilan shug‘ullanish uchun maxsus jihozlar yoki sport zaliga obuna bo‘lish shart emas, mashhg‘ulotlar asosiy mushak guruhlarini rivojlantiradi (kuch va chidamlilikni oshiradi), ko‘p mashqlar egiluvchanlik va koordinatsiyani yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, uyning istalgan joyida, ko‘chada yoki har qanday qulay joyda bajarilishi mumkin.

Gimnastikaning asosiy mashqlari bu ko‘krak, qo‘l va tana mushaklarini mustahkamlovchi yerga tayangan holatda qo‘llarni bukish va yozishlar, oyoq va dumba mushaklarini rivojlantiruvchi o‘tirib turishlar, qorin mushaklarini va umurtqa pog‘onasini barqarorlashtiruvchi “planka”lar, kardio va kuch mashqlarini birlashtiradigan “byorpi” mashqlaridir.

Har qanday crossfit mashqlar tizimi o‘z ichiga quyidagi rivojlantiruvchi gimnastika mashq majmularini oladi:

- chaqqonlikni;
- koordinatsiyani;
- muvozanatlilikni;

- aniqlikni;
- mushak va bo‘g‘inlarni kinetik retseptorlarini.

Bundan tashqari, crossfitni gimnastika tizimda mashq qilish uslubiy asosini quyidagi jihozlarda ishlash mashqlari nazarda tutiladi:

- turnikda tortilish;
- qo‘sh poyada qo‘llarni bukib yozish;
- qo‘l mushaklarini ishlatuvchi, epchillik va chaqqonlikni rivojlantiruvchi arqonga chiqish;
- tananing yuqori orqa va yelka mushaklarini samarali rivojlanishiga ta’sir etuvchi halqalarda tortilish;
- qorin mushaklari bilan bir qatorda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi qo‘sh poya, halqa va turnikda burchak hosil qilib turish;
- yerda qo‘llarni turli xil bukib yozish;
- bir oyoqda tana og‘irligi bilan sakrab o‘tirib turish;
- tashlashlar;
- qo‘llarni bukib yozish va sakrashlar orqali ko‘p mushaklar guruhini jalg etadigan “byorpi” mashqi.

Shunday qilib, barcha mashqlar sportchini o‘z og‘irligi ishtirokida amalga oshiriladi.

Og‘ir atletika (erkin vaznlik mashqlari bilan) ya’ni og‘ir atletika yoki pauerlifting, mashg‘ulot uslubi og‘irliklar shtangalar, giryalar va boshqa shunga o‘xhash asbob-uskunalar bilan silkitish va surishga asoslangan. Agar biz crossfitda og‘ir atletika haqida gapiradigan bo‘lsak, ushbu turdagи mashqlar nimani rivojlantiradi va u qanchalik foydali bo‘lsa, o‘z navbatida shuni ta’kidlash kerakki, bu eng qiyin va travmatik mashg‘ulotlardan biridir. Bu mahorat va puxta ishlab chiqilgan dasturni hamda yangi boshlovchilar uchun murabbiyning mayjudligini talab qiladi. Og‘ir atletika vositalari yordamida erkin vaznlik bilan bajariladigan mashqlar hisoblanib, u quyidagi parametrlarni yaxshilaydi:

- kuch chidamliligini;


- yuqori jismoniy yuklamalarga mushaklar hajmini turg‘unligini rivojlantirish (kuch faktori);
- konsentratsiya chegarasi;
- turg‘unlik;
- tenglik.

Har bir sportning o‘ziga xos xususiyati bor. Sportchilar eng yuqori cho‘qqilarni ko‘zlaydilar, ya’ni ular bir narsaga ixtisoslashgan va ixtisoslik qanchalik tor bo‘lsa, shuncha ko‘p muvaffaqiyatga erishadi. Masalan, pauerlifter kuch uchun mashq qiladi, ya’ni, u maksimal og‘irligi bilan bir marta bosish muhimdir, bodibilder esa kuch ko‘rsatkichlarini mashq qiladi, ya’ni, u uzoq vaqt davomida minimal dam olish bilan dahshatli kuch ko‘rsatishi mumkin. Biroq crossfitda hech qanday ixtisoslashuv mavjud emas. Har qanday boshqa sport turi kabi crossfit ham o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Afzalliklari shundaki, siz og‘ir atletikachidan yaxshi yugurib, unga yaqin og‘irlikni ko‘tarasiz va aksincha yengil atletikachiga nisbatan og‘ir yuk ko‘tarib, uning tezligiga yaqin yugurasiz. Siz bajargan ishni ikkala sportchi ham bajara olmaydi. Crossfit sizga ko‘p qirralilikni beradi, ya’ni, bu haqiqiy hayotda ko‘proq uchraydi, bu turdagi mashg‘ulotlar sizni haqiqiy hayotiy vaziyatlarga ko‘proq moslashtiradi. Misol uchun, boshqa sport turlaridan farqli o‘laroq, siz 500 metrga yugurib borishingiz mumkin, darhol mashinani itarish va tortish yoki biror og‘ir narsani ko‘tarish uchun borishingiz va keyin yana 500 metrga yugurishingiz mumkin.

Kamchiliklari shundaki, mutaxassislik yo‘q, bunda natija maksimal bo‘lmaydi, og‘ir atletikachi singari og‘ir yuklarni ko‘tara olmasligingiz, yengil atletikachi singari juda yuqori tezlikda yugura olmasligingiz mumkin. U yerda ham kuch mashqlari, ham chidamlilik birdek boradi.

Crossfit ham har qanday sport singari travmatikdir. Mashqlar texnikasiga e’tibor berish, keraksiz natijalarga erishish maqsadida mashqlarni to‘g‘ri bajarilishini e’tiborsiz qoldirmaslik lozim.

Crossfit mashqlari majmualari asosan turgan joyda (yakka tartibda, guruhli, majmuaviy yoki musobaqa tarzida) yoki masofalarga harakatlanish uslublarida olib boriladi.



Crossfit mashg'ulotlar dasturi uchta tamoyildan biriga asoslanadi:

* Vaqtni hisobga olmaganda, tur doirasidagi har bir mashqda ma'lum miqdordagi takrorlash bilan mashg'ulot o'tkazish. Asosiy maqsad – ma'lum bir tezlikda ma'lum miqdordagi turlarni bajarish. Davralar orasidagi tanaffus - 1-2 daqiqa. Asta-sekin bu tanaffus barcha turlarni to'xtamasdan bajara

olmaguningizcha qisqartirilishi kerak. Yangi boshlovchilar o‘z mashg‘ulotlarini ushbu prinsip asosida quradilar.

* Vaqtni hisobga olgan holda vaqtsiz bo‘lgani kabi bir xil prinsipga ko‘ra, faqat barcha turlarning o‘tish vaqtini belgilanishi kerak va har bir mashg‘ulot barcha turlarni bajarish uchun vaqtni qisqartirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

* Turlar soniga qarab, muayyan vaqt oralig‘i o‘rnataladi, unda siz ma’lum vaqt ichida maksimal turlarni bajarishingiz kerak. Bunday mashg‘ulotlarning maqsadi bir xil mashg‘ulot vaqtini saqlab, turlar sonini ko‘paytirishdir.

Asosiy o‘quv dasturining o‘quv kunlari har xil turdagini mashg‘ulotlar bilan to‘ldirilishi kerak, bu yerda tananining monoton mashqlarga o‘rganib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun 3-5 ta o‘quv rejalarini to‘plami bo‘ladi. Crossfit - bu keng qamrovli rivojlanish, shuning uchun mashqlar bazasini doimiy ravishda kengaytirish muhimdir.⁴

Har bir insonning hayotida jismoniy harakat mavjud u kundalik ishga borishda yoki raqs mashg‘ulotlari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Har bir inson qomatining yaxshi ko‘rinishni, o‘z tanasining holatini nazorat qilishni va o‘ziga ishonishni xohlaydi. Hamma har xil turdagini jismoniy faoliyat (gantellar ko‘tarish yoki yugurish) bilan shug‘ullanadi. Lekin, bir vaqtning o‘zida barcha jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik) takomillashtirish imkoniyatini taqdim etuvchi fitnesning crossfit kabi yo‘nalishi mavjud. Crossfit deyarli barcha sport turlarida mavjud bo‘lgan mashqlarni umumlashtiradi, bu sizning tanangizni uyg‘unlikda rivojlantirish va sog‘lig‘ingizni yaxshilash uchun eng yaxshi imkondir.

Agar sportchi crossfit tamoyillarini yaxshi tushunsa ham, u nima ekanligini, odatdagi fitnesdan qanday farq qilishini tushunsa ham, birinchi marta mavjud o‘quv dasturlaridan foydalanish yoki tajribali murabbiy bilan o‘zini rivojlantirish juda muhimdir. Buni o‘zingiz qilishingiz, o‘z tanangizning imkoniyatlarini hali ham yaxshi tushunmagan holda, shikastlanishlar va umumiyyatni sog‘lig‘ingizning

⁴Burxonov B.H. Crossfit mashqlari yordamida ichki ishlari organlari xodimlarining umumiy jismoniy tayyorgarliklarini oshirish.//O‘quv uslubiy qo‘llanma, T-2023.

yomonlashuvi yuz berishi mumkin. Tananing ma'lum bir xil jismoniy yuklamalarga moslashishi natijasida mushaklarning o'sishi va boshqa jismoniy ko'rsatkichlar to'xtaydi. Crossfit nima ekanligini bilib, sportchilar yuklamalarni o'zgartiradilar, shuningdek ularni asta-sekin oshiradilar va shu bilan bu noxush alomatdan qochadilar.⁵

Crossfitda ko'pincha tayyor bo'lmagan sportchilarda charchoq alomatlari seziladi. Odatda ular og'ir atletikaga o'tishda gimnastika va kardio to'plamlarga savodsiz munosabatda bo'lish, shuningdek, sportchilarning tezroq yuqori pog'onani egallah istagi bilan bog'liq shoshilish e'tiborsizlik tufayli va muvofiqlashtirishning yetishmasligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, jarohatlar sportchilarning noqulay jihozlari natijasida yuzaga keladi. Shuningdek, mashg'ulotlar jarayonida to'plamlar o'rtaida kichik tanaffuslar qilishingiz va dam olish kunlarini tashkil qilishingiz kerak. Crossfit haqida o'ylaydigan ko'plab sportchilarning keng tarqalgan xatosi shunda.⁶

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Crossfit sport turi tushunchasi?
2. Crossfit mashg'uloti asoslari?
3. Kardiyoyuklama deganda nimani tushunasiz?
4. Gimnastika sport turiga ta'rif bering?
5. Og'ir atletika sport turiga ta'rif bering?

⁵Burxonov B.H. Crossfit mashqlari yordamida ichki ishlar organlari xodimlarining umumiyl jismoniy tayyorgarliklarini oshirish.//O'quv uslubiy qo'llanma, T-2023.

⁶Kuliyev R.S., Maqsudova Q.A., Raxmatullayeva L.A., Funksional ko'pkurash.//O'quv qo'llanma. T.: 2021 yil.

II BOB. CROSSFIT MAJMUA VIY MASHQLARI

2.1. Crossfit mashg‘ulotlar jarayoni

Crossfit o‘zgaruvchanlik, yuqori intensivlik va funksionallik tamoyillariga asoslanadi. Uning maqsadi – jismoniy tayyorgarlikning barcha jihatlarini jumladan, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, koordinatsiya, chaqqonlik, muvozanat va aniqlikni rivojlantirish. Shu nuqtayi nazardan, crossfit nafaqat mashg‘ulot tizimi, balki har tomonlama rivojlangan sportchini yaratishga qaratilgan butun bir falsafadir.

Crossfitning barcha mashg‘ulotlarida shug‘ullanuvchining tayyorgarlik darajasiga, yoshiga va jinsiga qaramasdan aniq maqsad bo‘lishi lozim. Shu bilan birga salbiy oqibatlarga (jarohatlanishlar)ga yo‘l qo‘ymaslik uchun mashg‘ulotlar murabbiy tomonidan alohida rejalahtiriladi.

Murabbiy tomonidan mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tuzish uchun dasturlash asoslarini bilish kerak.

Mashg‘ulot har qanday jismoniy (kuch, chidamlilik, chaqqonlik, tezlik va boshqalar) va psixologik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun shug‘ullanadigan shaxsning tanasiga muntazam ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan ko‘p tomonlama mazmunli pedagogik harakatlar jarayonidir.

Dasturlash – bu sportchini tayyorlashning maqsadli vazifalariga va muayyan vaqt ichida mashg‘ulot yuklamalarini tashkil etishning oqilona shakllarini belgilovchi maxsus prinsiplarga muvofiq o‘quv jarayonining mazmunini tartibga solishdir.

Shu bilan birga dasturlash yuqori darajada ilmiy va uslubiy jihatdan mashg‘ulotlarni rejalahtirish, maqsadga erishish ehtimoli ko‘proq bo‘lgan ta’limning yangi va mukammal shaklidir.

Mashg‘ulotlarni rejalahtirish - sportchining ma’lum bir maqsadi va darjasasi (yangi yoki tajribali shug‘ullanuvchi)ga mo‘ljallangan tizimli izchil

mashg‘ulotlar to‘plami (ro‘yxati)dir. Yo‘nalishga qarab mashg‘ulot rejasi ham tarkibiy va turlilik ham siklik farqlanadi.

Crossfit mashg‘ulotlari dasturini tuzishda tajribali murabbiyni tavsiyasiga rioya qilish lozim, bu orqali butun tanaga tushadigan yuklamani balanslaydi hamda dam olish va tiklash uchun optimal vaqt ni ta’minlaydi.

Erkaklar va ayollar uchun mashg‘ulot dasturi strukturasi universal hamda bir xildir. Mashg‘ulot jarayonida ayollar erkaklar bilan bir hil mashqlar va takrorlashlarni bajaradilar, faqat ularni ko‘taradigan og‘irligi kamroq bo‘ladi.

Mashg‘ulot dasturi quyidagilar uchun mo‘ljallangan:

- yangi boshlayotganlarga;
- jismoniy tayyorgarlik darajasini saqlovchilarga;
- tajribali havaskor sportchilarga;
- professional - sportchilarga va xalqaro musobaqalarda ishtirok etuvchilarga (maxsus dastur).

Mashg‘ulotlar natijasi (mushak massasini yig‘ish, ozish, UJT va boshqalar) muntazamlikka, muvozanatli ta’lim rejasiga, individual jismoniy va psixologik xususiyatlarga hamda ovqatlanishlarni hisobga olishga bog‘liq.

Crossfitda xavfsizlik, samaradorlik, foydalilik va samaralilikni optimal balansda saqlash uchun asosiy prinsiplar, bular: doimiylik va undan so‘ng intensivlikdir. Mashg‘ulotning dastlabki bosqichida harakat mexanikasi intensivlikdan ustun turishi kerak. Ushbu sportda yangi boshlovchilar uchun yangi harakatlar intensiv yuklama hisoblanadi. Harakatlarni sifatli bajarish uchun birinchi navbatda to‘g‘ri va barqaror o‘rganish lozim undan so‘ng yuklama hamda tezlikni oshirish mumkin.

Intensivlik – crossfitning muhim qismi hisoblanib, harakatlarni amalga oshirishda professional darajaga erishgandan so‘ng uni oshirish mumkin. Ushbu tartibga rioya qilinmasa, ayniqsa noto‘g‘ri harakatlar yuklama bilan birlashib ketsa jarohatlar va uzoq muddatli rivojlanishni sekinlashish ehtimolini oshiradi.

Mashg‘ulotlar jarayonida ikki xil yuklamaga ajraladi, bular: aerobik va anaerob bo‘lib, ular bir-biridan prinsip jihatdan farqlanadi.

Aerob yuklama – bu past intensiv jismoniy mashqlardir. Bunday mashqlarda mushak faoliyatini saqlab qolishning asosiy manbai kislorod hisoblanadi. Bunda mushaklar glyukoza va yog‘larning oksidlanishi orqali hosil bo‘lgan quvvatni iste’mol qiladi.

Aerob yuklama – bu vaznni normallashtirish va tanani hayotiy aktivlikligi uchun yaxshi imkoniyat, anaerob esa mushak guruhlari massasini oshiradi.

Aerob mashg‘ulotlarning birinchi 20-30 daqiqasi davomida organizm kuniga oziqlanadigan ovqatdan quvvat chiqaradi. Tanadagi ortiqcha yog‘lar oksidlanishi uchun mashg‘ulotlar taxminan 1 soat davom etishi kerak.

Anaerob mashg‘ulotlarda (ATF) va (KF) zaxirasi qisqa 8-12 soniyaga etadi. Ushbu vaqt davomida mushak guruhlari katta yuklamaga bardosh bera oladi. Mana shu 8-12 soniya o‘tgandan so‘ng aerobik yuklama anaerobik yuklamaga aylanadi.

Aerob yuklama paytida yurak urishining optimal tezligi daqiqada 120-140 taga, anaerob yuklamada esa 160-180 taga chiqadi.

Aerob yuklamaning afzalliklari:

- nafas olish uchun mas’ul bo‘lgan mushak guruhlarini mustahkamlaydi;
- skelet mushaklarini mustahkamlaydi;
- yurak mushaklarini mustahkamlaydi va shu orqali uni samaradorligini oshiradi;
- qon bosimini normallashtiradi;
- qon aylanishini yaxshilaydi;
- qizil qon hujayralari sonini ko‘paytirib organlarga kislorodni yaxshi yetkazib beradi;
- kayfiyatni yaxshilaydi va stressni kamaytiradi.

Anaerob yuklamaning afzalliklari:

- mushak guruhlarini kuchaytiradi;
- chidamlilikni oshiradi;
- tananing metabolik jarayonini tezlashtiradi;
- suyak to‘qimasini va tanani umumiy mustahkamlaydi, gavdani tik saqlaydi;
- qandli diabet xavfini kamaytiradi.

Aerob yuklamaga misollar: suzish, velosiped haydash, yurish, o‘rtalikda uzoq masofalarga yugurish, aerobika va o‘yinga tushish.

Anaerob yuklamaga misollar: kuch mashqlari, bodibilding va pauerlifting, trenajyorlarda kuch mashqlari, qisqa masofaga yugurish.

Har qanday mashg‘ulot uch qismidan iborat bo‘ladi, bular:

- razminka (tanani qizdirish);
- asosiy;
- yakuniy (tanani sovitish).

Razminka (tanani qizdirish) qismining vazifasi tanani barcha a’zolarini sinovdan o‘tkazish va keyingi bosqichga o‘tish uchun tayyorlashdan iborat.

Asosiy qismda esa asosiy vazifalar hal etiladi va qo‘yilgan maqsadlarga erishiladi. Ushbu qismning davomiyligi yuklama va mashqlarni tanlashga bog‘liq.

Yakuniy qism yuklamani bosqichma-bosqich kamaytirishni va tanani jismoniy mashqlar boshlanishidan oldingi tinch holatga olib kelishni nazarda tutadi.

2.2. Razminka (tanani qizdirish)

Razminka 2 qismga bo‘linadi, bular: umumiy va maxsus. Ular tegishli mashqlar to‘plami bilan tavsiflanadi.

Razminkaning umumiy qismi, odatda, bo‘lajak mashg‘ulot uchun maqsadlarni belgilash bilan boshlanadi. Bu vaqtda kelgusi yuklamani va mashg‘ulotni tashkillashtirish tushuntiriladi. Shundan so‘ng belgilangan mashqlarni bajarishga kirishiladi. Razminkaning asosiy alomatlari bu yurak urishi tezligi (YuUT 110-130 zar./daq), yengil terlash, nafas olish tezligi va tanani

umumiyligi holatini yaxshilash tushuniladi. Tana qizdirish vaqtiga 8-15 daqiqa davomida o'tkaziladi.

Razminka mushak to'qimalarini qanday cho'zilganini va qisqarishini his qilishga yordam beradi. Agar tanani yuklamaga tayyorlash to'g'ri amalga oshirilsa, unda mashg'ulot yanada samarali bo'ladi: shug'ullanuvchi paylar va bo'g'imlarni emas, balki haqiqiy mushaklar ishini his qilishi kerak. Buningsiz mashg'ulot jarayonini to'liq o'tkazish imkonsizdir.

Razminka (tanani qizdirish)ning asosiy va maxsus qismlari.

Tarkibi	O'ziga xos hususiyati
Umumiy	
Past va o'rta intensivlikdagi siklik mashqlar (yurish, sekin yugurish, sakrashlar va boshqalar). Asosiy mushak guruhlari va barcha bo'g'imlar uchun to'liq harakatlar bilan bajariladigan turli mashqlar (qo'shimcha yuklarsiz va qarshiliklarsiz).	Yakka tarzda yoki kichik guruhlardan tarkibida bajariladi; davomiyligi 8-15 daqiqa (havo harorati va shaxsiy talablardan kelib chiqib)
Maxsus	
Asosiy qismda bajariladigan mashq turiga qarab, razminka asosan metabolik tizimlar texnik (texnik-taktik) ko'nikmalarni shakllantirish uchun qo'llaniladi.	Murabbiy kuzatuvi ostida; taxminan davomiyligi 10-20 daqiqa

Razminkaning dastlabki qismi odatda, qon aylanishini kuchaytirish, ishlaydigan mushakdagi tana haroratini oshirish uchun bir nechta past yoki o'rta intensivlikdagi mashqlarni o'z ichiga olishi kerak. Umuman olganda, qizdirilgan mushaklar va biriktiruvchi to'qimalarni uzayishi va cho'zilishi oson bo'ladi. Shuning uchun, keyingi qadamda cho'ziluvchanlik mashqlari bajariladi. Razminkaning keyingi qismi kuch-quvvat mashqlari bilan davom etadi, odatda,

og‘irliliklarsiz o‘rtacha zo‘r berish mashqlari, qolaversa sherikning yordami bilan bajariladigan mashqlar ham kiritiladi.

Razminkaning maxsus qismi belgilangan maqsadlarga, kelgusi mashg‘ulotning texnik xususiyatlariga bag‘ishlanadi. Maxsus tanlangan mashqlar mashg‘ulotning asosiy qismida ishlatiladigan texnik harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarni faollashtiradi.

Bundan tashqari, ushbu mashqlar sportchini keyingi murakkab mashqlarni bajarish uchun ruhiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Ushbu mashqlar muhim mashqlarni to‘g‘ri bajarish va jarohatlarni oldini olish uchun yordam beradi.

Ularning xilma-xilligiga qaramasdan, razminkaning ikki xil muqobil varianti mavjud.

Tarkibi	Afzalligi
Standart variantning bajarilishi	
Odatiy mashqlar va vazifalarning muayyan ketma-ketlikda o‘z ichiga olgan to‘liq standartlashtirilgan dastur.	Bajarish oson, ko‘p vaqt olmaydi, tashkillashtirish oddiy.
Maxsus variantning bajarilishi (nostandard)	
Odatdagi musobaqadan oldingi razminka yoki boshqa nostandard, yangi elementlarni o‘z ichiga oladi	Bir xillikni buzish, noodatiy harakat dasturini bajarishga moslashish

Eng ko‘p ishlatiladigan variant – standart maxsus razminkasi, uni tarkibiga o‘zining ketma-ketligida bajariladigan odatiy mashqlar va vazifalar kiradi.

Bunday razminkalar odatiy mashg‘ulotning bir qismi hisoblanib, bunga qo‘shimcha motivasiya talab qilinmaydi. Buning davomiyligi 8-15 daqiqani tashkil qiladi. Yuqori malakali sportchilarda o‘zlariga tegishli bo‘lgan standart razminkaning shaxsiy variantlari bor.

Razminkani pisand qilmaslik jarohatlar olinishining ehtimolini oshiradi va bu esa funksional ko‘pkurashda olinadigan jarohatlarning ko‘p qismiga sabab bo‘ladi.

Har qanday tayyorgarlikka ega bo‘lishidan qat’iy nazar sportchilarda ko‘p uchraydigan jarohat turi bu pay cho‘zilishidir. Bu jarohat ko‘p sport turlarida kuzatiladi: crossfitda, pauerliftingda, yakka kurashlarda, futbolda va boshqa sport turlarida. Razminka vaqtida paylar egiluvchanligi ortib har qanday yuklamaga tayyor bo‘ladi. Uzoq muddat davomida razminkani noto‘g‘ri o‘tkazilishi yurak qon-tomirlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun yengil kardio yuklama har qanday mashg‘ulot dasturining ajralmas qismidir.

Razminkaning strukturasi (tuzilishi).

Birinchi navbatda, bo‘g‘imlar gimnastikasini bajarish lozim, bu odatda ko‘p vaqt talab qilmaydi. Burilish va aylanish harakatlarini bajarish kerak.

Harakatlar yuqoridan pastga qarab va quyidagi ketma-ketlikda bajarish tavsiya etiladi:

- bo‘yin qismi umurtqalari;
- yelka bo‘g‘imlari;
- ko‘krak qismi umurtqalari;
- tirsak va panja bo‘g‘imlari;
- bel qismlari;
- tizza bo‘g‘imlari;
- to‘piq va boldirlar.

Keyingi bosqichda barcha tana mushaklarini cho‘zish mashqlari bajarilib, bunda ham harakatlar yuqoridan pastga qarab amalga oshiriladi. Taxminan cho‘zish mashqlariga 3 daqiqa ajratiladi.

Shundan so‘ng yengil kardio yuklama bajariladi. Buning maqsadi yurak qon-tomirlarini yuklamalarga tayyorlashdan iborat. Bunda yengil aerobik yuklama bajariladi va yurak urish ritmi daqiqasiga 130 zARBAGACHA ko‘tariladi.

Yengil og‘irliliklar bilan kuch mashqlari razminkaning yakuniy qismida bajariladi.Ular mushaklarni ishini to‘g‘ri his qilish va ularda qon aylanishini yaxshilashga yordam beradi.⁷

2.3. Crossfit majmuaviy mashqlari

1-majmua (vaqt hisobida 10 raund).

Xodim turnik oldida 2 metr masofada dastlabki holatda turadi. “Snaryadga” buyrug’ida o‘z unvoni va familiyasini aytib, turnikda osilgan holatni qabul qiladi. “Boshladik” buyrug’ida 5 marotaba turnikda tortiladi (turnikda tortilish mashqi talablariga asosan (1-mashq)), darhol turnikdan tushib yerga qo‘llarda tayanib 10 marotaba bukib yozadi, zudlik bilan tik turgan holatga o‘tib, 15 marotaba o‘tirib turadi, shu yerda birinchi raundni tugatib ikkinchi raundga o‘tadi. Raundlar orasida dam olishga ruxsat etilmaydi. Vaqt “boshladik” buyrug’idan to 10-raundning oxirgi harakatlari tugagunga qadar hisoblanadi. Harakatlar to‘liq bajarilishi shart. Xato harakatlarga yo‘l qo‘yilganda shu bajarish marotabasi hisoblanmaydi. Mashqni baholash bajarilgan vaqt hisobi bilan belgilanadi.

2-majmua (vaqt hisobida 3 raund).

Mashqni bajarish uchun dastlabki holat start chizig‘idan 2 metr masofa orqada shaxsiy tarkib ro‘yxat bo‘yicha ikki kolonnada saflangan. “Startga” buyrug’ida bajaruvchi start chizig‘iga yetib kelib yuqori start holatini qabul qiladi. “Diqqat” buyrug’ida yugurish va diqqat holatini qabul qiladi. “Marsh” buyrug’ida 40 metr masofaga chiziq bo‘ylab yugurib, tananing har qanday qismi bilan burilish chizig‘ini kesib ortga burilish va shu tariqa 4 marotaba masofa bo‘ylab takrorlab yogurttiladi, darhol tik turgan holatga o‘tib 20 marotaba o‘tirib turadi, zudlik bilan yelkada yerga yotgan holatni qabul qilib, qo‘l uchlarini oyoq uchlariga 20 marotaba tekkizish (press) harakatini bajaradi, shu yerda birinchi raundni tugatib, ikkinchi raundga o‘tadi. Raundlar orasida dam olishga ruxsat etilmaydi. Vaqt “marsh” buyrug’idan to 3 raundning oxirgi harakatlari tugagunga qadar hisoblanadi. Harakatlar to‘liq bajarilishi shart. Xato harakatlarga yo‘l qo‘yilganda

⁷ Kulihev R.S., Maqsudova Q.A., Raxmatullayeva L.A., Funksional ko‘pkurash.//O‘quv qo‘llanma. T.: 2021 yil.

shu bajarish marotabasi hisoblanmaydi. Mashqni baholash bajarilgan vaqt hisobi bilan belgilanadi.

3-majmua (vaqt hisobida 3 raund).

Mashqni bajarish uchun dastlabki holat 100 metr masofaga yugurish starti chizig‘idan 2 metr masofa orqada shaxsiy tarkib ro‘yxat bo‘yicha ikki kolonnada saflangan. Bajaruvchi mashqni bajarish dastlabki holatida turadi, “diqqat”-“boshladik” buyrug’ida bajaruvchi 15 marotaba o‘tirib turadi, darhol yerga qo‘llarda tayanib 15 marotaba bukib yozadi, zudlik bilan tik turgan holatga o‘tib, 100 metr masofaga yuguradi, shu yerda birinchi raundni tugatib ikkinchi raundga o‘tadi. Raundlar orasida dam olishga ruxsat etilmaydi. Vaqt “boshladik” buyrug’idan to 3 raundning oxirgi 100 metr masofaga yugurish marra chizig‘ini kesib o‘tishiga qadar hisoblanadi. Harakatlar to‘liq bajarilishi shart. Xato harakatlarga yo‘l qo‘ylganda shu bajarish marotabasi hisoblanmaydi. Mashqni baholash bajarilgan vaqt hisobi bilan belgilanadi.

4-majmua (vaqt hisobida 1 raund).

Mashqni bajarish uchun dastlabki holat 400 metr masofaga yugurish starti chizig‘idan 2 metr masofa orqada shaxsiy tarkib ro‘yxat bo‘yicha ikki kolonnada saflangan. “Startga” buyrug’ida bajaruvchi start chizig‘iga yetib kelib yuqori start holatini qabul qiladi. “Diqqat” buyrug’ida yugurish va diqqat holatini qabul qiladi. “Marsh” buyrug’ida 400 metr masofaga yuguradi, marra chizig‘iga yetib kelib 20 marotaba 16 kg li toshni tirsaklarni bukmasdan to‘g‘riga ko‘z ro‘parasi darajasigacha ko‘tarib tushiradi (ayollar yerga chalqancha yotgan holatda qo‘llarni oyoq uchiga uzatib (press) dastlabki holatga qaytish), darhol 20 marta “Byorpi” (qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, so‘ngra tik turgan holatga o‘tib havoga sakrab quloch yoyib chapak chalish, so‘ngra yana dastlabki tik turish holatiga qaytib tushish) mashqini bajaradi, zudlik bilan 400 metr masofaga yuguradi. Harakatlar to‘liq bajarilishi shart. Xato harakatlarga yo‘l qo‘ylganda shu bajarish marotabasi hisoblanmaydi. Mashqni baholash bajarilgan vaqt hisobi bilan belgilanadi.

“Byorpi” (50 marotaba vaqtga).

Mashqni bajarish uchun bajaruvchi dastlabki holatida turadi, “diqqat”-“boshladik” buyrug’ida bajaruvchi 50 marotaba “Byorpi” (qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, so‘ngra tik turgan holatga o‘tib havoga sakrab quloch yoyib chapak chalish, so‘ngra yana dastlabki tik turish holatiga qaytib tushish) mashqini bajaradi. Harakatlar to‘liq bajarilishi shart. Xato harakatlarga yo‘l qo‘yilganda shu bajarish marotabasi hisoblanmaydi. Mashqni baholash bajarilgan vaqt hisobi bilan belgilanadi.

5- majmua. (5 raundli “Afap”).

1-raund – 400 metrga yugurish, 20 marta oyoq uchlarni turnik to‘sining ko‘tarish, 30 marta “Byorpi” (qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, so‘ngra tik turgan holatga o‘tib havoga sakrab quloch yoyib chapak chalish, so‘ngra yana dastlabki tik turish holatiga qaytib tushish), 400 metrga yugurish, 25 marta yerda qo‘llarga tayanib oyoq uchlarini orqaga tashlash, 50 marta yotgan holda oyoq uchlarini bosh uzra ko‘tarib, tushirish, 400 metrga yugurish.

2-raund - 20 marta oyoq uchlarini turnik to‘sining ko‘tarish, 30 marta “Byorpi” (qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, so‘ngra tik turgan holatga o‘tib havoga sakrab quloch yoyib chapak chalish, so‘ngra yana dastlabki tik turish holatiga qaytib tushish), 400 metrga yugurish, 50 marta oyoqlarni bukib o‘tirish holatidan yerga chalqancha yotgan holatga o‘tib tanani ko‘tarib tushirish (Sit AP press), 10 marta turnikda osilgan holda tizzalarni yon tomonlarga bukib press qilish, 400 metrga yugurish, 25 marta yerda qo‘llarga tayanib oyoq uchlarini orqaga tashlash.

3-raund - 30 marta “Byorpi” (qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, so‘ngra tik turgan holatga o‘tib havoga sakrab quloch yoyib chapak chalish, so‘ngra yana dastlabki tik turish holatiga qaytib tushish), 400 metrga yugurish, 50 marta oyoqlarni bukib o‘tirish holatidan yerga chalqancha yotgan holatga o‘tib tanani ko‘tarib tushirish (Sit AP press), 10 marta turnikda osilgan holda tizzalarni yon tomonlarga bukib press qilish.

6-majmua. 1500 metrga yugurish, 30 marta 30 yoki 50 kgli shtangani yerdan siltamasdan ko‘krakka olib va yuqoriga ko‘tarish, 30 marta bosh uzra (30-50 kg) shtanga bilan o‘tirib, turish, 1500 metrga yugurish.

7-majmua. (“Chipper”). 100 marta 16 yoki 24 kg toshni siltab ko‘tarish, 100 marta oyoqlarni bukib o‘tirish holatidan yerga chalqancha yotgan holatga o‘tib tanani ko‘tarib tushirish (Sit AP press), 100 marta turnikda tortilish, 100 marta 10 kgli to‘pni nishonga uloqtirish.

8-majmua. 1200 metrga yugurish, 3 raund 10 marta turnikda tortilish, 15 marta qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, 20 marta bir oyoqda (pistolet tariqasida) o‘tirib, turish. 800 metrga yugurish, 2 raund 10 marta turnikda tortilish, 15 marta qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, 20 marta bir oyoqda (pistolet tariqasida) o‘tirib, turish. 400 metrga yugurish, 1 raund 10 marta turnikda tortilish, 15 marta qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, 20 marta bir oyoqda (pistolet tariqasida) o‘tirib, turish.

9-majmua. (“Chipper”). 50 marta yerdan 50-80 kg li shtangani tik qomat holatiga ko‘tarib, tushirish, 100 marta yakka tartibda arqonda sakrash, 40 marta yerdan 50-80 kgli shtangani tik qomat holatiga ko‘tarib, tushirish, havoda o‘tirib turish (dastlabki holat tik turgan holat, qo‘llarni to‘g‘riga uzatib o‘tirish, so‘ngra dastlabki tik turgan holatga qaytish), 30 marta yerdan 50-80 kg li shtangani tik qomat holatiga ko‘tarib, tushirish, 30 marta oyoqlarni bukib o‘tirish holatidan yelkaga yotish holatiga o‘tib tanani ko‘tarib tushirish (Sit AP press).

10-majmua. 1600 metrga yugurish, 100 marta turnikda tortilish, 200 marta qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, 300 marta havoda o‘tirib turish (dastlabki holat tik turgan holat, qo‘llarni to‘g‘riga uzatib o‘tirish, so‘ngra dastlabki tik turgan holatga qaytish), 1600 metrga yugurish.

11-majmua. (20 daqiqali “Afap”). 5 marta turnikda tortilish, 10 marta qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, 15 marta havoda o‘tirib turish (dastlabki holat tik turgan holat, qo‘llarni to‘g‘riga uzatib o‘tirish.)

12-majmua. (20 daqiqali “Afap”). 5 marta qo‘llarda tik turgan holda (oyoqlarni devorga taqab) bukib yozish, 10 marta bir oyoqda (pistolet tariqasida) o‘tirib, turish, 15 marta turnikda tortilish.

13-majmua. Har bir mashq 20 soniya vaqt ichida 8 ta aylana tariqasida bajarilib, mashqlar orasidagi dam olishlar 10 soniya vaqtini tashkil etadi. bir aylana mashqlari quyidagicha: qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, turnikda tortilish, yotgan holda tanani ko‘tarib tushirish (press), o‘tirib, turish.

14-majmua. (“Chipper”). 100 marta turnikda tortilish, 100 marta qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, 100 marta yotgan holda tanani ko‘tarib tushirish (press), 100 marta o‘tirib, turish, 100 marta o‘tirib, turish.

15-majmua. 1000 metrga yugurish, 50 marta 30 kgli traster (30 kgli shtangani o‘tirgan holatdan tik turgan holatga qo‘llarni bukmasdan ko‘tarish), 50 marta turnikda tortilish, 1000 metrga yugurish.

16-majmua. 1-bosqich – “Afap” 5 raunddan iborat. Bir raundda 8 marta bosh uzra shtanga bilan o‘tirib, turish, 12 marta turnikda tortilish, 30 marta “bayok” press (yerga yotgan holatda tanani bir oz ko‘tarib yuqori qismini tomonlarga egib, qaytarish), 40 metrga 4 marotaba mokisimon yugurish. Majmua vaqt hisobiga bajarilib, barcha raund mashqlarini dam olmasdan tez bajarish talab etiladi.

2-bosqich - bir raundda 10 marta yelkada shtanga bilan o‘tirib turish (shtangani og‘irligi minimal 40 kg), 15 marta qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish. Mashqlar bir vaqtining o‘zida navbatma-navbat bajariladi. Raundlar soni 5 ta bo‘lib ular orasidagi dam olishlar 1 daqiqadan iborat.

Ayol xodimalar uchun crossfit mashq majmualari

1-majmua. (vaqt hisobida 3 raund). Mashqni bajarish uchun dastlabki holat start chizig‘idan 2 metr masofa orqada shaxsiy tarkib ro‘yxat bo‘yicha ikki kolonnada saflanadi. “Startga” buyrug’ida bajaruvchi start chizig‘iga yetib kelib yuqori start holatini qabul qiladi. “Diqqat” buyrug’ida yugurish va diqqat holatini qabul qiladi. “Marsh” buyrug’ida 40 metr masofaga chiziq bo‘ylab yugurib, tananing har qanday qismi bilan burilish chizig‘ini kesib ortga burilish va shu

tariqa 4 marotaba masofa bo‘ylab takrorlab yugurtiladi, darhol tik turgan holatga o‘tib

20 marotaba o‘tirib turadi, zudlik bilan yerga chalqancha yotgan holatni qabul qilib qo‘l uchlarini oyoq uchlariga 20 marotaba tekkizish (press) harakatini bajaradi, shu yerda birinchi raundni tugatib ikkinchi raundga o‘tadi. Raundlar orasida dam olishga ruxsat etilmaydi. Vaqt “Marsh” buyrug’idan to 3-raundning oxirgi harakatlari tugagunga qadar hisoblanadi. Harakatlar to‘liq bajarilishi shart. Xato harakatlarga yo‘l qo‘yilganda shu bajarish marotabasi hisoblanmaydi. Mashqni baholash bajarilgan vaqt hisobi bilan belgilanadi.

2-majmua. (vaqt hisobida 3 raund). Mashqni bajarish uchun dastlabki holat 100 metr masofaga yugurish starti chizig‘idan 2 metr masofa orqada shaxsiy tarkib ro‘yxat bo‘yicha ikki kolonnada saflanadi. Bajaruvchi mashqni bajarish dastlabki holatida turadi, “diqqat”- “boshladik” buyrug’ida bajaruvchi 15 marotaba o‘tirib turadi, darhol yerga qo‘llarda tayanib 15 marotaba bukib yozadi, zudlik bilan tik turgan holatga o‘tib 100 metr masofaga yuguradi, shu yerda birinchi raundni tugatib ikkinchi raundga o‘tadi. Raundlar orasida dam olishga ruxsat etilmaydi. Vaqt “boshladik” buyrug’idan to 3-raundning oxirgi 100 metr masofaga yugurish marra chizig‘ini kesib o‘tishiga qadar hisoblanadi. Harakatlar to‘liq bajarilishi shart. Xato harakatlarga yo‘l qo‘yilganda shu bajarish marotabasi hisoblanmaydi. Mashqni baholash bajarilgan vaqt hisobi bilan belgilanadi.

3-majmua. (vaqt hisobida 1 raund). Mashqni bajarish uchun dastlabki holat 400 metr masofaga yugurish starti chizig‘idan 2 metr masofa orqada shaxsiy tarkib ro‘yxat bo‘yicha ikki kolonnada saflanadi. “Startga” buyrug’ida bajaruvchi start chizig‘iga yetib kelib yuqori start holatini qabul qiladi. “Diqqat” buyrug’ida yugurish va diqqat holatini qabul qiladi.

“Marsh” buyrug’ida 400 metr masofaga yuguradi, marra chizig‘iga yetib kelib yerga chalqancha yotgan holatda qo‘llarni oyoq uchiga uzatib (press) dastlabki holatga qaytish), darhol 20 marta “Byorpi” (qo‘llarda yerga tayanib bukib yozish, so‘ngra tik turgan holatga o‘tib havoga sakrab quloch yoyib chapak chalish, so‘ngra yana dastlabki tik turish holatiga qaytib tushish) mashqini

bajaradi, zudlik bilan
400 metr masofaga yuguradi.

Harakatlar to‘liq bajarilishi shart. Xato harakatlarga yo‘l qo‘yilganda shu bajarish marotabasi hisoblanmaydi. Mashqni baholash bajarilgan vaqt hisobi bilan belgilanadi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Crossfit mashg‘ulotlar jarayoni haqida tushuncha bering?
2. Razminka nima?
3. Crossit majmuaviy mashqlariga misol keltiring?
4. Ayol xodimalar uchun mo‘ljallangan crossfit mashg‘ulotlar majmuiga misol keltiring?
5. Intensivlik deganda nimani tushunasiz?

III BOB. CROSSFITDA FOYDALANILADIGAN JIHOZ VA INVENTARLAR

3.1. Jihozlarning nomlanishi va qo‘llanish tartibi

Sport kiyimlari qulay hamda qattiq bo‘lishi lozim. Turli xil jihozlar va inventarlarning mavjudligi crossfit sportchilariga mashg‘ulotlarini diversifikatsiya qilish, jismoniy tayyorgarlikning turli jihatlariga e’tibor qaratish va sport zalidagi vaqtlaridan unumli foydalanish imkonini beradi. Inventarni to‘g‘ri tanlash, shuningdek, har bir elementdan to‘g‘ri foydalanish mashg‘ulot jarayonida sezilarli natijalarga erishishga yordam beradi. Narsalarni tejamang - ular to‘satdan harakatlaringizga bardosh beradigan kuchli tikuqli sifatli matodan tikilgan bo‘lishi kerak. Kuchli mashg‘ulotlar juda ko‘p terlashni o‘z ichiga oladi va terining nafas olishi uchun sizga o‘zini o‘zi tozalaydigan maxsus materiallardan tayyorlangan sport kostyumi kerak. Oyoq kiyimlariga alohida e’tibor berilishi kerak, chunki mashqlar sakrash, yugurish va oyoq bilagi zo‘r bo‘g‘imning salomatligi uchun barqaror va yuqori sifatli poyabzallarni o‘z ichiga oladi.⁸

⁸Burxonov B.H. Crossfit mashqlari yordamida ichki ishlar organlari xodimlarining umumiyl jismoniy tayyorgarliklarini oshirish//O‘quv uslubiy qo‘llanma, T-2023.

GIMNASTIK NAKLADKA

Himoya vositasi hisoblanib qo‘lga taqiladi, gimnastika anjomlarda turli xil mashqlarni bajarishda muhim ahamiyatga ega. Qo‘llar jarohatlanishini va kaftlarni qadoqlanishini oldini olishda samaralidir.



WEIGHTLIFTING BELT

(Og‘ir atletikachilar kamari)

Og‘ir atletikachilarining muhim anjomlaridan biri bu kamardir. Kamarning maksimal eni 12 santimetrn tashkil etib, bel sohasi va umurtqa pog‘onalarini ushlab turishda hamda jarohatlanishlarni oldini olishda samaralidir.



BANDAJLAR VA LEYKOPLASTIRLAR

Tizza bo‘g‘imlarining jarohatlanishini oldini olish va reabilitatsiya qilish maqsadida sport bandajlari ishlatiladi. Agar mushak paylari jarohatlansa, sport bandaji taqiladi. Bandaj sportchining kiyimi ichidan taqilishi lozim.



AIR BIKE (VELOTRENAJYOR)

Velotrenajyor (Air Bike) – qo‘l harakati bilan velosiped haydashni imitatsiya qilish uchun ishlatiladi. Velotrenajyorni tuzilishi metall va plastikdan tashkil topadi. U o‘z ichiga velosiped ramasini, o‘rindiqni, 2 ta tepki pedalini, maxovikni va qo‘llar harakati uchun 2 ta dastani oladi.




OBKASH

Obkash – turli og‘irlikdagi yuklarni yelkaga ilib belgilangan masofaga tashish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, materiali metalldan tashkil topadi.



KUCH CHANASI

Kuch chanasi – belgilangan masofaga ma’lum og‘irlikdagi yuklarni (snaryadlarni) moslashtirib oldinga surib harakatlanish uchun mo‘ljallangan.



BEL VA QORIN MUSHAKLARINI RIVOJLANTIRISH MASHQINI BAJARISH UCHUN DASTGOH

Bel va press mushaklarini rivojlantirish mashqlarini bajarish uchun mo‘ljallangan dastgoh.



SPORT TO‘SINI (TURNIK)

Turnik – tortilish, siltanib chiqish, oyoqlarni ko‘tarish, batterflyay mashqlarini bajarish uchun mo‘ljallangan. Ushlash uchun gorizontal tutgich diametri 28 mm, uzunligi 2,5 m va 2,4 m balandlikda, funksional rama ichiga o‘rnatilgan bo‘ladi.



GANTELLAR

Gantellar – kuch mashqlarini bajarish uchun eng oddiy va eng mashhur sport anjomi sanaladi. Gantellar ko‘krakka, to‘g‘ri uzatilgan qo‘llarga, bosh ustiga va o‘tirib-turishda ko‘tarishga hamda belgilangan masofalarga tashishga ishlataladi. Og‘irliklari: 2,5 kg; 5 kg; 10 kg; 12,5 kg; 15 kg; 17,5 kg; 20 kg; 22,5 kg; 25 kg; 27,5 kg; 30 kg; 32,5 kg; 35 kg.



GIRYA (TOSH)

Toshlar - metalldan tarkib topgan bo‘lib, sharsimon yasalgan hamda maxsus ushslash uchun dasta tutgichdan iborat, uning diametri kamida 40 mm bo‘lishi kerak. Og‘irliklari: 8 kg; 12 kg; 16 kg; 24 kg; 32 kg.



SHTANGA

Shtanga - ko'krakka, pastga to'g'ri uzatilgan qo'llarga, bosh ustiga va o'tirib turishda ko'tarishga hamda belgilangan masofalarga tashishga ishlatiladi. Tarkibi metall konstruksiyadan tashkil topgan. Ushlash uchun grif diametri (ayollarga) 25 mm, (erkaklarga) 28 mm. Shtanga grifi og'irligi 20 kg (erkaklarga), 15 kg (ayollarga).



GIMNASTIK HALQA

Halqalar siltanmay va siltanib chiqish hamda tayanib qo'llarni bukib yozish uchun mo'ljallangan. U 2 ta yog'ochdan yasalgan halqa va 2 ta cho'zilmaydigan sintetik materialdan tarkib topadi.



ARQON

Sintetik materialdan yoki paxtadan tayyorlangan, diametri kamida 40 mm, uzunligi 4,5 m balandlikda metalldan tayyorlangan sirtmoqqa osiladi. Osilganda arqonni pastki uchi yerga tegib turadi.



TEZLIK ARG‘IMCHOG‘I

Tezlik arg‘imchog‘i – ikkitalik sakrash mashqini bajarishda ishlatiladi. U tutgich va turli uzunlikdagi metall trosdan iborat.



PARALET

Paralet – turli usullarda qo‘llarni bukib yozish uchun mo‘ljallangan. U ikkita metalldan yasalgan tayanish uchun quvurdan iborat bo‘lib, ushslash joyi diametri 45 mm, balandligi 50 sm, uzunligi 1 m.



TUMBA

Tumba – ustiga sakrab chiqish va ustidan sakrab o‘tish uchun mo‘ljallangan. U yog‘och materialdan yasalib to‘g‘ri to‘rtburchakli shaklda bo‘lib, o‘lchamlari 50x60x70sm.



SLEMBOL

Rezina materialdan yasalgan bo‘lib, uning ichi qum bilan to‘ldiriladi. Diametri: 35 sm; 40 sm; 45 sm. Og‘irliklari: 5kg; 10 kg; 20 kg; 30 kg; 40 kg; 50 kg; 60 kg; 75 kg; 90 kg.



TO‘LDIRMA TO‘P

To‘ldirma to‘p – 3 m balandlikda belgilangan nishonga uloqtirish uchun mo‘ljallangan. Diametri: 20 sm, 30 sm, 40 sm. Og‘irliklari: 4 kg; 6 kg; 9 kg; 13 kg.



CHUVALCHANG

Chuvalchang – guruh tarkibida, quyidagi mashqlarni sinxron tarzda: yelkaga ko‘tarish, yelkadan yelkaga o‘tkazish, yerdan gavda tik bo‘lguncha ko‘tarish, o‘tirib-turish, belgilangan masofaga tashish, navbat bilan oldinga qadam tashlash va uloqtirish uchun mo‘ljallangan. Diametri: 300 mm, uzunligi 3400 mm bo‘lib, uni og‘irlik darajasini oshirish uchun ichiga qum bilan to‘ldirilgan qopchalar joylangan bo‘ladi.



TO‘LDIRMA QOP (SENDBEK)

To‘ldirma qop (sendbek) quyidagi mashqlarini bajarish uchun: ko‘krakka va yelkaga ko‘tarishga, yelkadan yelkaga o‘tkazishga, cho‘qqayib o‘tirib turishga, belgilangan masofaga tashish uchun mo‘ljallangan.




CROSSFIT MASHQLARI


Run (*yugurish*)



Double-unders (*arg ‘imchoqda ikkitalab sakrash*)
Triple-unders (*arg ‘imchoqda uchtalab sakrash*)




Roving (*eshkak eshish*)




Assault bike (*velosiped haydash*)




Air squat (o 'tirib turish)




Byorpi (*qo'llarni bukib yozish va yuqoriga sakrash*)




Box jump (*yashikka sakrab chiqish va tushish*)



One legged squat (*bir oyoqda o'tirib turish*)




Push-up (*qo'llarni bukib yozish*)




Handstand walk (*qo 'llarda tayanib yurish*)




Walking lunges (*katta qadam tashlab tizzalarni bukib yurish*)




Situp (press)




Back extensions (bel mushaklariga press)



Pull-ups (*turnikda tortilish*)




Chest to bar pul-up (*ko krakkacha turnikda tortilish*)



L-pull-up (L шаклida to 'sinda tortilish)



Bar muscle-up (to 'sin yoki halqaga kuch bilan chiqish)






Toes to bar (*oyoq uchini turnikka tekkizish*)




Ring push-ups (*halqada qo'llarni bukib yozish*)



Ring dips (*halqada tushib chiqish*)




Dips (*qo'shpoyada tushib chiqish*)




Rope climb (arqonga tirmashib chiqish)




Ball slams (koptokni zarb bilan yerga urish)



Wall ball (to ‘pni yuqoriga irg‘itish)




Sandbag shouldering (to 'pni yelkaga ko 'tarib tashlash)




Bench press (yotib shtangani ko 'tarish)




Back squat (yelkada shtanga bilan o 'tirib turish)



Cluster (*shtangani dast ko ‘tarish*)




Deadlift (*shtangani qomat tikturgan holatgacha ko ‘tarish*)




Farmer's walk (*Fermercha yurish*)



Front squat (*ko 'krakda shtanga bilan o 'tirib turish*)



Kettlebell swing (*toshni bosh uzra ko ‘tarib tushirish*)




Overhead squat (*shtangani bosh ustida ko ‘tarib, o ‘tirib turish*)




Shoulder to overhead (*shtangani bosh ustida ko 'tarib tushirish*)



Sumo dead lift high pull (*shtangani bo 'yingacha ko 'tarish*)



Thruster (*shtangani o 'tirib turib ko 'tarish*)



Heavy ropes (*arqonlarni silkitish*)



Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Crossfit inventarlariga nimalar kiradi?
2. Turnikka ta’rif bering va undagi bajariladigan mashqlarni amaliy ko‘rsatib bering?
3. Brussga ta’rif bering va undagi bajariladigan mashqlarni amaliy ko‘rsatib bering?
4. Crossfitda foydalaniladigan “obkash” nima?
5. Tezlik arg‘imchog‘ida mashq ko‘rsatib bering?
6. Byorpi mashqini amaliy bajarib ko‘rsating?

IV BOB. CROSSFIT MASHQLAR MAJMUASI

4.1. Crossfit mashqlari kursantlarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning samarali usuli sifatida

Ushbu crossfit majmualari ichki ishlar organlari xodimlarining, ta’lim muassasalari kursantlarining salomatligi, jinsini va jismoniy tayyorgarligini inobatga olgan holda sinflarga ajratilib ishlab chiqilgan. Har bir sinfda majmular dastlabkidan so‘nggisiga tomon mashqlar soni va intensivligi bilan boyitib borilgan. Mashg‘ulotlarni boshlashdan oldin o‘zingizni qaysi sinfda ekanligingizga aniqlik kiritib, so‘ngra mashg‘ulotlarni boshlaganingiz ma’qul. Majmualarni bajarishingiz chog‘ida birinchisini mukammal bajarmasdan keyingisiga yoki orada majmualarni tashlab undan keyingisiga o‘tmasligingiz, sizni jismoniy sifatlaringizni sekin, ammo ortiqcha yuklamalarsiz, sog‘lig‘ingizni yo‘qotmagan holda oshishiga olib keladi. Qisqa muddat ichida champion bo‘lishni orzu qilmang! Mashhur crossfiterlar singari “Jahonning eng tayyor erkagi” unvoniga sazovor bolish uchun har-bir majmuani vijdonan bajarish hamda uzoq yillar davomida shug‘ullanish talab etiladi.

Vazn kamaytirish (ozish) maqsad qilganlar toifasi uchun

Kunlik crossfit mashg‘ulot rejasi eng yengilidan boshlab qiyinchilik darajasi bo‘yicha tartiblangan 3-5 mashqni o‘z ichiga olishi kerak.

Ular maxsus jihozlar bilan sport zalida ham, uy sharoitida mashg‘ulotlarda ham qo‘llanilishi mumkin.

O‘z vazni bilan eng yaxshi mashqlar quyidagilardir:

O‘tirib turishlar - mashqlarning klassik versiyasi o‘zgarishlar bilan almashtirilishi mumkin: bir oyoqda o‘tirib turishlar va sakrashlar.

Yerga tayangan holda qo‘llarni bukish va yozish - mashqini devor yonida qo‘llarga tayanib (oyoqlar tepada) bukish va yozishlar orqali murakkablashtirish mumkin.

Byorpi - bu butun tanani harakatlantiradigan aerob ish faoliyatini yaxshilaydigan crossfit intizomining eng funksional asosiy klassik mashqlaridir.

Crossfit mashg‘ulotlarida arg‘imchoqda sakrash o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Mashqni bir sakrashda arg‘imchoqni ikki marta aylantirish orqali bajarish kerak, bu esa harakat tezligi va yuklamani oshiradi. Agar siz to‘liq oyoqqa emas, balki oyoqlar uchiga tushsangiz, mashq samaradorligi oshadi.

Qorin mushaklari uchun mashqlari (buralish, press, planka) - har bir mashg‘ulotga va turli guruh mushaklarini ishlatadigan yuklama bilan kiritilishi kerak.

Quyidagi asosiy blok 15 marta takrorlanadigan 5 ta mashqdan iborat:

- byorpi;
- gorizontal to‘sinda tortishish;
- «portlovchi» o‘tirib turishlar;
- arg‘imchoqda sakrash;
- to‘singa osilgan holda oyoqlarni ko‘tarish.

Belgilangan mashg‘ulot vaqt 15 daqiqa davomida maksimal ravishda aylanishlarni mumkin qadar bajarish kerak. Belgilangan dam olish vaqtı - 40 soniyani tashkil etadi.

Vazn kamaytirish uchun qanday mashq qilish kerak:

Crossfit mashqlari istalgan ravishda tanlanadi va birlashtiriladi. Vaznni kamaytirish maqsadlari nuqtayi nazaridan, inson muammoli joylardagi “nuqta ishidan” uzoqlashadi, shuning uchun ommaviy kaloriya iste’molini rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan yagona shartga rioya qilish kerak, mashg‘ulot kuniga kiritilgan harakatlar katta mushak massasi ustida ishlashi lozim.

Glikogenning glyukozagacha faol parchalanishi va yog‘ zaxiralarining yo‘q qilinishi ma’lum bir mashg‘ulot hajmiga erishilganda sodir bo‘ladi, bu 8-16 takrorlashlar soni va 5-7 yondashuvlar soni darajasida o‘rnataladi.

Vazn kamaytirishga yo‘naltirilgan dasturlardagi mashg‘ulot kunlari ko‘rsatkichlar dinamikasini kuzatish va mashg‘ulotlardan haqiqiy rivojlanishni kuzatish uchun muntazam ravishda takrorlanishi kerak, inson vaqt o‘tishi bilan mashqlar majmuasini takrorlashi lozim, faqatgina bir xil ta’sir etuvchi mashqlarni

o‘zaro almashtirish mumkin. Har bir keyingi mashg‘ulot avvalgisidan biroz murakkabroq bo‘lishi kerak.

Crossfit mashg‘uloti davomiylik bilan emas, balki mashqlarning tezlik tempini saqlab turishga bardosh berish orqali erishiladigan maxsus ish rejimi bilan ifodalanadi. Ushbu indikatorning eng yaxshi ko‘rsatkichi shug‘ullanuvchining yurak urish tezligidir. Mashg‘ulotning faol bosqichida uning (YuUT) optimal qiymatlari 140-160 zarba oralig‘ida bo‘ladi.

Lipolizni faollashtirish uchun zarur bo‘lgan tejamkor quvvat tanqisligi holatini yondashuvlararo dam olish davomiyligini tavsiya etiladigan 60 soniyagacha o‘rnatish orqali saqlab qolish mumkin. Mahorat oshgani sayin, dam olish vaqtining davomiyligi qisqartirilishi mumkin.

Yog‘ yoqish mashg‘ulotlari haftada kamida 4 marta o‘tkazilishi kerak, aks holda to‘plangan natijani yo‘qotish ehtimoli yuqori.

Mashg‘ulotning davomiyligini nazorat qilish lozim: 30 daqiqadan ko‘proq davom etadigan crossfit mashqi - yurakka ortiqcha yukdir, bu ham mushak vaznining sezilarli yo‘qotishlariga olib keladi.

Davolash sog‘lomlashtirish guruhibiga kiritilganlar toifasi uchun:

1-majmua: 3 daqiqa davomida bajariladi.

1-mashq: “Alpinist” - dastlabki holat (D.h.) qo‘llar bilan yerga tayangan holatda. Mashq 4 hisobga bajariladi.

1 - o‘ng oyoq tizzasini ko‘krakkacha tortish;

2 - D.h.,

3 – chap oyoq tizzasini ko‘krakkacha tortish;

4 - D.h.

Shu tarzda mashq 20 marotaba takrorlanadi.

2-mashq: “Byorpi” - d.h. qo‘llar bilan yerga tayangan holatda. Mashq 4 hisobga bajariladi.

1 - qo‘llarni bukib yozish;

2 - tizzalarni ko‘krakkacha tortish;

3 - o‘rnidan turib tepaga (yuqoriga) sakrash;

4 - d.h.

Mashq 15 marotaba takrorlanadi.

3-mashq: arg‘imchoqda sakrash - 30 marotaba.

Mashqlar oralig‘ida dam olish mumkin emas.

2-majmua: mashqlar uch aylana bajariladi.

1-mashq: “Ball slams” – d.h. oyoqlar yelka kengligida 3 kg li slimbolni ko‘krak atrofida ushlab, tepaga ko‘tarib kuch bilan yerga tashlash mashqini 20 soniya bajarish.

2-mashq: d.h. yerga dumba bilan o‘tirgan holatda, oyoqlar to‘g‘riga cho‘zilib yerdan 10-15 santimetrik balandlikda yuqoriga ko‘tarilgan. 3 kg li medbolni

1 - hisobga o‘ng tomonga burilib yerga tekkizish, 2 - hisobga chap tomonga burilib yerga tekkizish. Mashq 20 soniya bajariladi.

3-mashq: “Heavy ropes” (arqon silkitish) - arqonning ikkala bosh tomoni (uchi)dan ushlab, chap va o‘ng qo‘llarni tepaga pastga silkitishlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Mashq 20 soniya davomida bajariladi.

Mashqlar oralig‘ida dam olish mumkin emas, biroq har bir aylana orasida 20 soniyagacha dam olish mumkin.

3-majmua: 3 daqiqa davom etadi. Har bir mashq vaqt bo‘yicha bajariladi.

1-mashq: D.h. Chap oyoq yarim qadam oldinda, o‘ng qo‘l tepada, sakrashni amalga oshirgan bir vaqtning o‘zida qo‘l va oyoqlar holati o‘zgartiriladi, ya’ni o‘ng oyoq oldinda, chap qo‘l yuqorida.

2-mashq: D.h. oyoqlar jipslashtirilgan, qo‘llar pastga tushirilgan. Yuqoriga sakrab oyoqlar yarim qadam enlikda ochiladi va shu vaqtning o‘zida qo‘llar yuqoriga ko‘tarilib bosh ustida birlashadi (qarsak chaladi) va yana yuqoriga sakrashni amalga oshirib d.h.ga qaytadi.

3-mashq: D.h. yerga qo‘llar va tizzalarda tayangan holda turiladi. Mashq 4 hisobga bajariladi.

1 - chap qo‘l oldinga, o‘ng oyoq orqaga uzatiladi;

2 - d.h.

3 - o‘ng qo‘l oldinga, chap oyoq orqaga uzatiladi;

4 - d.h.

Barcha mashqlar 10 soniya davomida bajariladi. Mashqlar orasida 10 soniya dam olishga ruxsat etiladi.

4-majmua:

1-mashq: dastlabki holat asosiy turish. Tizzalarni baland ko‘tarib turgan joyida yugurish, qo‘llar holati ham yugurayotgandagi holat singari. Mashq 20 soniya davom ettiriladi.

2-mashq: “push up” - dastlabki holat yerga qo‘llar bilan tayangan holatda qo‘llarni bukib yozish (tizzalarni yerga qo‘ygan holatda bajarish) 20 marotaba bajariladi.

3-mashq: “sit-up press” – dastlabki holat yerga yotgan holatda, oyoqlar juft holatda yerdan 10-15 sm ko‘tarilgan, qo‘llar yon tomonda, bir tizzalarni bukib ko‘krak tomonga tortish, ikki dastlabki holat. Mashq 15 marotaba takrorlanadi.

5-majmua:

1-mashq: dastlabki holat oyoqlar kerilgan (yelka kengligida), qo‘llar yonda. Mashq 2 hisobga bajariladi. Bir chap tomonga bir qadam sakrab chap oyoqni qo‘yamiz o‘ng qo‘l ko‘krak oldida, ikki o‘ng tomonga sakrab o‘ng oyoqni qo‘yamiz chap qo‘l ko‘krak oldida. Shu tarzda mashq 10 marotaba takrorlanadi.

2-mashq: dastlabki holat tirsaklarda yerga tayangan holatda oyoqlar juft holatda to‘g‘riga uzatilgan. Mashq 4 hisobga bajariladi. bir ikkala oyoqni yerdan baravar uzib bir qadam chap tomonga tashlash, ikki dastlabki holat, uch o‘ng tomonga oyoqlarni bir qadam tashlash, to‘rt dastlabki holat, tirsak yerdan uzilmaydi. Shu tarzda mashq 10 marotaba takrorlanadi.

3-mashq: 50 metr masofaga yugurish.

Ushbu majmua ikki marotaba takrorlanadi. Mashqlar orasida dam olinmaydi.

6-majmua: mashqlar uch aylana bajariladi.

1-mashq: “Walking lunges” (tizzalarni birin ketini yerga tekkizib yurish) – dastlabki holat qo‘llar belda oyoqlar yelka kengligida. Mashq 4 hisobga bajariladi. Bir chap oyoqda bir metr oldinga qadam tashlab o‘ng oyoq tizzasini yerga tekkizish, ikki dastlabki holat, uch o‘ng oyoqda bir metr oldinga qadam tashlab chap oyoq tizzasini yerga tekkizish, to‘rt dastlabki holat. Shu holatda 20 qadam qo‘yamiz. Mashqni qo‘llarimizda og‘irliklar ko‘tarib, qo‘llarimizni yuqoriga ko‘tarib va h.k usullarda bajarish mumkin.

2-mashq: “Toes to bar” – dastlabki holat turnik (to‘sindan)da osilib turgan holatda, bir tizzalarni bukmagan holatda oyoq uchini ko‘tarib to‘singa tekkizish, ikki dastlabki holat. Shu tarzda mashq 10 marotaba takrorlanadi.

3-mashq: to‘sinda kurashchilar rezinasini bog‘lagan holatda rezinaning ikki uchidan ushlab pastga tomon qo‘llarning tirsak bo‘g‘imi to‘liq ochilguncha cho‘zish. Mashq 15 marotaba takrorlanadi.

4-mashq: 100 metr masofaga yugurish.

Mashqlar orasida dam olinmaydi ammo har bir aylana orasida qisman 10 yoki 20 soniya dam olishga ruxsat etiladi.

Dastlabki o‘rganuvchilar toifasi uchun:

1-majmua:

1-mashq: “Rezina tortish” - to‘sinda kurashchilar rezinasini bog‘lagan holatda rezinaning ikki uchidan ushlab pastga tomon qo‘llarning tirsak bo‘g‘imi to‘liq ochilguncha cho‘zish. Mashqni 30 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Sumo dead lift high pull” – yerda turgan 40 kg li shtangani yelka kengligida ushlab qomat tik turgan holatda bo‘yingacha ko‘tarish va dastlabki holatga qaytish. Shu tarzda mashqni 10 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Sled drag” – 30 kg og‘irlik ortilgan chanani 30 metr masofaga tortish.

4-mashq: “Double unders” – arg‘imchoq (skakalka)da ikkitalab sakrash. Har bir sakraganda arg‘imchoq arqoni oyoq ostidan ikki marotaba o‘tishi kerak bo‘ladi. Mashq 100 marotaba takrorlanadi.

2-majmua:

1-mashq: “Box jump” - dastlabki holat tumba yonida turgan holatda uning ustiga sakrab chiqish va tushish mashqini 20 marotaba takrorlash. Tumba o‘rnida o‘rindiqlardan foydalansa ham bo‘ladi.

2-mashq: “V-situp” – dastlabki holat orqa bilan yerga yotgan holatda qo‘l va oyoq uchlarini bir vaqtning o‘zida ko‘tarib uchrashtirish va dastlabki holat. Shu tariqa mashqni 20 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Sled push” - chana ustida 20 kg li og‘irlik qo‘yib 30 metr masofaga itarib yurish.

4-mashq: “Shoulder to overhead” – tik turgan holatda 50 kg li shtangani ko‘krakdan tirsaklar to‘liq ochilguncha yuqoriga ko‘tarish mashqini 10 marotaba ko‘tarish.

5-mashq: 10x10 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig‘i yonida turgan holatda 10 metr masofaga 5 marotaba borib kelish.

3-majmua:

1-mashq: “Assault bike” – velosiped haydash. Velotrenajyor yoki velosipedda ushbu mashqni 10 daqiqa davomida bajarish. Agar ushbu vositalar mavjud bo‘lmasa uning o‘rniga vaqt ni qisqartirgan holda kardiomashqlardan ya’ni yugurish yoki arg‘imchoqda sakrash mashqlarini almashtirish mumkin.

2-mashq: “Back extensions” – bel mushaklariga press mashqi. Dastlabki holat yerga yuztuban yotgan holatda qo‘llar bosh orqasida, oyoqdan sherik bosib turgan holatda tanani orqa tomonga ko‘tarib tushirish mashqini 20 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Wall ball” – 4 kg li to‘ldirma to‘pni ko‘krak oldidan 3 metr balandlikdagi nishonga uloqtirish mashqini 20 marotaba takrorlash.

4-majmua:

1-mashq: “Kettlebell swing” – oyoqlar keng holatda 16 kg tosh oyoqlar orasida, toshni ikki qollab siltab oldinga ko‘krak ro‘parasigacha kotarish. Mashqni 15 marotaba takrorlash.

2-mashq: “lateral jump over the barbell” – dastlabki holat shtanga (25-30 sm balandlikdagi o‘rindiq yoki shu balandlikda ip to‘sinq) oldida turgan holatda. Bir qo‘llarda tayangan holatni qabul qilib qo‘llarni bukib yozish, ikki o‘rindan turib to‘sinqning ikkinchi tomoniga sakrab o‘tish va qo‘llarda tayangan holatni qabul qilib qo‘llarni bukib yozish mashqini 15 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Farmer’s walk” – yuk ko‘tarib yurish. Dastlabki holat oyoqlar yelka kengligida qo‘llar pastda gantel ushlagan holatda 100 metr yurish mashqi.

4-mashq: 100 metr masofaga yugurish.

5-majmua:

1-mashq: “Knees to elbows” - turnikda tizzalarni tirsaklarga tekkizish. Dastlabki holat turnikda osilib turgan holatda tizzalarni ko‘tarib tirsaklarga tekkizish va dastlabki holat. Mashqni 20 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Walking lunges” (tizzalarni birin-ketin yerga tekkizib yurish) – dastlabki holat 16 kg li toshlarni ikkala qo‘lda ko‘targan holatda. Mashq 4 hisobga bajariladi. Bir chap oyoqda bir metr oldinga qadam tashlab o‘ng oyoq tizzasini yerga tekkizish, ikki dastlabki holat, uch o‘ng oyoqda bir metr oldinga qadam tashlab chap oyoq tizzasini yerga tekkizish, to‘rt dastlabki holat. Shu holatda 20 qadam qo‘yish.

3-mashq: “Heavy ropes” (argon silkitish) - og‘ir arqonning ikki uchidan ushlab silkitishlar (bir qo‘l yuqorida ikkinchisi pastda va almashtirib, ikkala qo‘lda yuqoriga va pastga, yonga ham shu tarzda bir yoki ikki qo‘llab). Mashqni 30 soniya davomida bajarish.

4-mashq: 4x40 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig‘i yonida turgan holatda 40 metr masofaga 2 marotaba borib kelish.

6-majmua:

1-mashq: “Push-up” - dastlabki holat yerga qo‘llar bilan tayangan holatda qo‘llarni bukib yozish mashqini 20 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Air squat” – dastlabki holat qo‘llar oldinda oyoqlar yelka kengligida, qomatni tik tutgan holda o‘tirib turish, mashq 20 marotaba takrorlanadi.

3-mashq: “Sit-up press” – dastlabki holat yerga orqa bilan yotgan holatda, qo‘llar bosh orqasida oyoqlar juft holatda. Bir hisobga boshni yerdan ko‘tarib tizzaga tomon egilish, ikki hisobga dastlabki holat.

Shu tariqa mashqni 15 marotaba takrorlash.

7-majmua:

1-mashq: 1000 metr masofaga yugurish.

2-mashq: “Toes to bar” – dastlabki holat turnik (to‘sini)da osilib turgan holatda, bir tizzalarni bukmagan holatda oyoq uchini ko‘tarib to‘singa tekkizish, ikki dastlabki holat. Shu tarzda mashq 10 marotaba takrorlanadi.

3-mashq: “Front squat” – 40 kg li shtangani ko‘krak oldida ko‘tarib o‘tirib turish mashqini 10 marotaba takrorlash.

4-mashq: “Ball slams” - dastlabki holat oyoqlar yelka kengligida 5 kg li slimbolni ko‘krak barobarida ushslash holatidan slimbolni yuqoriga ko‘tarish va zarb bilan yerga urish mashqini 20 soniya takrorlash.

8-majmua:

1-mashq: “Byorpi”-dastlabki holat qo‘llarda tayangan holatda. Mashq 4 hisobga bajariladi. Bir qo‘llarni bukib yozish, ikki tizzalarni ko‘krakka tortish, uch o‘rindan turib yuqoriga sakrash, to‘rt dastlabki holat. Mashq 15 marotaba takrorlanadi.

2-mashq: “Deadlift” – 60 kg li shtangani yerdan uzib belni to‘grilash mashqini 10 marotaba takrorlash.

3-mashq: 4x10 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig‘i yonida turgan holatda 10 metr masofaga 2 marotaba borib kelish.

Ushbu majmua vaqt hisobida bir aylana bajariladi. Kun o‘tgani sayin bajarish vaqtini qisqartirish yoki shu vaqt ichida mashqlarning bajarilish sonini ko‘paytirish mumkin.

Yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega xodimlar toifasi uchun:

1-majmua:

1-mashq: “Kettlebell swing” – oyoqlar keng holatda 16 kg tosh oyoqlar orasida, toshni ikki qollab siltab oldinga ko‘krak ro‘parasigacha ko‘tarish.

2-mashq: “Walking lunges” (tizzalarni birin-ketin yerga tekkizib yurish) – dastlabki holat 16 kg li toshlarni ikkala qo‘lda ko‘targan holatda. Mashq 4 hisobga bajariladi. Bir chap oyoqda bir metr oldinga qadam tashlab o‘ng oyoq tizzasini yerga tekkizish, ikki dastlabki holat, uch o‘ng oyoqda bir metr oldinga qadam tashlab chap oyoq tizzasini yerga tekkizish, to‘rt dastlabki holat. Shu holatda 20 qadam qo‘yamiz.

3-mashq: “V-situp” – dastlabki holat orqa bilan yerga yotgan holatda qo‘l va oyoq uchlarini bir vaqtning o‘zida ko‘tarib uchrashtirish va dastlabki holat. Shu tariqa mashqni 20 marotaba takrorlash.

4-mashq: 400 metr masofaga yugurish.

2-majmua:

1-mashq: “Clean and jerk” – tana vazni barobaridagi shtangani 10 marotaba siltab ko‘tarish. Shtangani yelka kengligida ushslash, bir harakatning o‘zida shtangani ko‘krakka olib chiqish va shu vaqtning o‘zida o‘tirgan holatni qabul qilish va o‘rindan turish. Ikkinci harakatda shtangani tirsaklar to‘g‘rilanguncha yuqoriga ko‘tarish shu vaqtning o‘zida chap oyoqni bir qadam oldinga tashlash va tizzalar to‘liq ochilib oyoqlarni parallel holatga keltirish.

2-mashq: “Box jump” - dastlabki holat tumba yonida turgan holatda uning ustiga sakrab chiqish va tushish mashqini 20 marotaba takrorlash. Tumba o‘rnida o‘rindiqlardan foydalansa ham bo‘ladi.

3-mashq: “Rope climb” – 3 metr balandlikda o‘rnatilgan arqonga tirmashib chiqish va tushish.

4-mashq: “Roving” - eshkak eshish. Maxsus trenajyorda 100 marotaba takrorlanadi. Trenajyor bo‘lmagan taqdirda yerga o‘tirgan holatda oyoqlar yelka kengligida tizzalar bukilgan holatda, kurashchilar rezinasini oyoq uchlariga

bog‘langan holatda. Rezina uchlarini ushlab ko‘krakkacha tortish. Shu vaqtning o‘zida oyoqlarni tizza ochilguncha to‘liq uzatish.

5-mashq: 10x10 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig‘i yonida turgan holatda 10 metr masofaga 5 marotaba borib kelish.

3-majmua: **1-mashq:** “Byorpi” - dastlabki holat qo‘llarda tayangan holatda. Mashq 4 hisobga bajariladi. Bir qo‘llarni bukib yozish, ikki tizzalarni ko‘krakka tortish, uch o‘rindan turib yuqoriga sakrash, to‘rt dastlabki holat. Mashq 15 marotaba takrorlanadi.

2-mashq: “V-situp” - dastlabki holat orqa bilan yerga yotgan holatda qo‘l va oyoq uchlarini bir vaqtning o‘zida ko‘tarib uchrashtirish va dastlabki holat. Shu tariqa mashqni 50 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Bench press” - yotgan holatda 40 kg li shtangani 15 marotaba ko‘tarish.

4-mashq: 100 metr masofaga yugurish.

4-majmua:

1-mashq: “Assault bike” – velosiped haydash. Velotrenajyor yoki velosipedda ushbu mashqni 10 daqiqa davomida bajarish. Agar ushbu vositalar mavjud bo‘lmasa uning o‘rniga vaqt ni qisqartirgan holda kardiomashqlardan ya’ni yugurish yoki arg‘imchoqda sakrash mashqlarini almashtirish mumkin.

2-mashq: “Toes to bar” – dastlabki holat turnik (to‘sind)da osilib turgan holatda, bir tizzalarni bukmagan holatda oyoq uchini ko‘tarib to‘singa tekkizish, ikki dastlabki holat. Shu tarzda mashq 10 marotaba takrorlanadi.

3-mashq: “Rezina tortish” - to‘sinda kurashchilar rezinasini bog‘lagan holatda rezinaning ikki uchidan ushlab pastga tomon qo‘llarning tirsak bo‘g‘imi to‘liq ochilguncha cho‘zish. Mashqni 30 marotaba takrorlash.

4-mashq: “Farmer’s walk” – yuk ko‘tarib yurish. Dastlabki holat oyoqlar yelka kengligida qo‘llar pastda gantel ushlagan holatda 100 metr yurish mashqi.

5-majmua:

1-mashq: “Front squat” – 40 kg li shtangani ko‘krak oldida ko‘tarib o‘tirib turish mashqini 15 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Back extensions” – bel mushaklariga press mashqi. Dastlabki holat yerga yuztuban yotgan holatda qo‘llar bosh orqasida, oyoqdan sherik bosib turgan holatda tanani orqa tomonga ko‘tarib tushirish mashqini 20 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Wall ball” – 5 kg li to‘ldirma to‘pni ko‘krak oldidan 3 metr balandlikdagi nishonga uloqtirish mashqini 20 marotaba takrorlash.

4-mashq: “Lateral jump over the barbell” – dastlabki holat shtanga (25-30 sm balandlikdagi o‘rindiq yoki shu balandlikda ip to‘siq) oldida turgan holatda. Bir qo‘llarda tayangan holatni qabul qilib qo‘llarni bukib yozish, ikki o‘rindan turib to‘siqning ikkinchi tomoniga sakrab o‘tish va qo‘llarda tayangan holatni qabul qilib qo‘llarni bukib yozish mashqini 15 marotaba takrorlash.

5-mashq: “Double unders” – arg‘imchoq (skakalka)da ikkitalab sakrash. Har bir sakraganda arg‘imchoq arqoni oyoq ostidan ikki marotaba o‘tishi kerak bo‘ladi. Mashq 100 marotaba takrorlanadi.

6-majmua:

1-mashq: “Push-up” - dastlabki holat yerga qo‘llar bilan tayangan holatda qo‘llarni bukib yozish mashqini 20 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Air squat” – dastlabki holat qo‘llar oldinda oyoqlar yelka kengligida, qomatni tik tutgan holda o‘tirib turish, mashq 20 marotaba takrorlanadi.

3-mashq: “Heavy ropes” (arqon silkitish) - og‘ir arqonning ikki uchidan ushlab silkitishlar (bir qo‘l yuqorida ikkinchisi pasda va almashtirib, ikkala qo‘lda yuqoriga va pastga, yonga ham shu tarzda bir yoki ikki qo‘llab). Mashqni 30 soniya davomida bajarish.

4-mashq: 4x10 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig‘i yonida turgan holatda 10 metr masofaga 2 marotaba borib kelish.

7-majmua:

1-mashq: “Pull-ups” – to‘sin (turnik)da tortinish. Mashqni 10 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Knees to elbows” - turnikda tizzani tirsakka tekkizish. Dastlabki holat turnikda osilib turgan holatda tizzalarni ko‘tarib tirsakka tekkizish va dastlabki holat. Mashqni 20 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Snatch” – dast ko‘tarish. Tana vaznidan 30 kg yengil bo‘lgan shtangani keng ushlagan holatda bir harakatda yuqoriga ko‘tarish. Shtangani ko‘tarish paytida o‘tirish va o‘rindan turish. Mashqni 10 marotaba takrorlash.

4-mashq: “Sled push” - chana ustida 20 kg li og‘irlik qo‘yib 30 metr masofaga itarib yurish.

5-mashq: 1000 metr masofaga yugurish.

8-majmua:

1-mashq: “Deadlift” – 60 kg li shtangani yerdan uzib belni to‘grilash mashqini 10 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Sandbag shoulderering” – 30 kg li qopni yerdan turgan holatdan 20 marotaba yelkaga ko‘tarib tushirish.

3-mashq: “Back extensions” – bel mushaklariga press mashqi. Dastlabki holat yerga yuztuban yotgan holatda qo‘llar bosh orqasida, oyoqdan sherik bosib turgan holatda tanani orqa tomonga ko‘tarib tushirish mashqini 20 marotaba takrorlash.

4-mashq: 4x40 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig‘i yonida turgan holatda 40 metr masofaga 2 marotaba borib kelish.

5-mashq: “Handstand walk” – dastlabki holat qo‘llar bilan yerga tayangan holatda oyoqlar yuqorida 30 metr masofaga qo‘lda yurib borish.

9-majmua:

1-mashq: “Brus” (qo‘shpoya)da qo‘llarni 10 marotaba bukib yozish.

2-mashq: “One legged squat” – dastlabki holat bir oyoqda turgan holatda qo‘llar oldinda 10 marotaba o‘tirib turish.

3-mashq: “Sled drag” – 50 kg og‘irlik ortilgan chanani 30 metr masofaga tortish.

4-mashq: “V-situp” – dastlabki holat orqa bilan yerga yotgan holatda qo‘1 va oyoq uchlarini bir vaqtning o‘zida ko‘tarib uchrashtirish va dastlabki holat. Shu tariqa mashqni 20 marotaba takrorlash.

5-mashq: “shoulder to overhead” – tik turgan holatda 50 kg li shtangani ko‘krakdan tirsaklar to‘liq ochilguncha yuqoriga ko‘tarish mashqini 10 marotaba ko‘tarish.

6-mashq: 1500 metr masofaga yugurish.

10-majmua: vaqt hisobida bir aylana bajariladi.

1-mashq: 1500 metr masofaga yugurish.

2-mashq: og‘irligi tana vazni bilan barobar bo‘lgan obkash ko‘tarib 50 metr masofaga yurib borish.

3-mashq: 10x10 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig‘i yonida turgan holatda 10 metr masofaga 5 marotaba borib kelish.

4-mashq: “Sumo dead lift high pull” – yerda turgan 50 kg li shtangani yelka kengligida ushlab qomat tik turgan holatda bo‘yingacha ko‘tarish va dastlabki holatga qaytish. Shu tarzda mashqni 10 marotaba takrorlash.

5-mashq: “Cluster” – tana vaznining yarmiga teng og‘irlikdagi shtangani yelka kengligida ushlab yerdan uzib yelkalarda ko‘tarish, shu vaqtning o‘zida o‘tirgan holat qabul qilinadi. O‘rindan turish barobarida shtanga yuqoriga ko‘tarilib qo‘llar to‘g‘rilanadi. Mashq 10 marotaba takrorlanadi.

6-mashq: 1500 metr masofaga yugurish.

7-mashq: “Handstand walk” – dastlabki holat qo‘llar bilan yerga tayangan holatda oyoqlar yuqorida 30 metr masofaga qo‘lda yurib borish.

Ushbu majmua vaqt hisobida bir aylana bajariladi. Kun o‘tgani sayin bajarish vaqtini qisqartirish yoki shu vaqt ichida mashqlarning bajarilish sonini ko‘paytirish mumkin. Musobaqa sharoitida marra chizig‘ini birinchi bo‘lib kesib o‘tgan ishtirokchi g‘olib hisoblanadi.

Ayol xodima (tinglovchi, kursant)lar toifasi uchun:

1-majmua:

1-mashq: “Push-up” - dastlabki holat yerga qo‘llar bilan tayangan holatda qo‘llarni bukib yozish mashqini 15 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Sit-up press”— dastlabki holat yerga orqa bilan yotgan holatda, qo‘llar bosh orqasida oyoqlar juft holatda. Bir boshni yerdan ko‘tarib tizzaga tomon egilish, ikki dastlabki holat. Shu tariqa mashq 15 marotaba takrorlash.

3-mashq: 4x10 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig‘i yonida turgan holatda 10 metr masofaga 2 marotaba borib kelish.

2-majmua:

1-mashq: “Byorpi” - dastlabki holat qo‘llarda tayangan holatda. Mashq 4 hisobga bajariladi. Bir qo‘llarni bukib yozamiz, ikki tizzalarni ko‘krakka tortish, uch o‘rindan turib yuqoriga sakrash, to‘rt dastlabki holat. Mashq 15 marotaba takrorlanadi.

2-mashq: “Wall ball” – 3 kg li to‘ldirma to‘pni ko‘krak oldidan 3 metr balandlikdagi nishonga uloqtirish mashqini 20 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Toes to bar” – dastlabki holat turnik (to‘sing)da osilib turgan holatda, bir tizzalarni bukmagan holatda oyoq uchini ko‘tarib to‘singa tekkizish, ikki dastlabki holat. Shu tarzda mashq 10 marotaba takrorlanadi.

3-majmua:

1-mashq: “Air squat” – dastlabki holat qo‘llar oldinda oyoqlar yelka kengligida, qomatni tik tutgan holda o‘tirib turish, mashq 20 soniya davomida takrorlanadi.

2-mashq: dastlabki holat qo‘shpoya (brus) oldida turgan holatda kurashchilar rezinasini to‘singa bog‘lab tortishlar. mashq 20 soniya davomida takrorlanadi.

3-mashq: “Jump rope” – arg‘imchoqda sakrash (skakalka) 20 soniya davom etadi.

4-majmua:

1-mashq: dastlabki holat qo‘llarda tayangan holatda. Mashq 4 hisobga bajariladi. Bir chap oyoq tizzasini ko‘krakka tortish, ikki dastlabki holat, uch o‘ng

oyoq tizzasini ko'krakka tortish, to'rt dastlabki holat. Shu tarzda mashq 20 marotaba takrorlanadi.

2-mashq: “Back extensions” – bel mushaklariga press mashqi. Dastlabki holat yerga yuztuban yotgan holatda qo'llar bosh orqasida, oyoqdan sherik bosib turgan holatda tanani orqa tomonga ko'tarib tushirish mashqini 20 marotaba takrorlash.

3-mashq: “Farmer’s walk” – yuk ko'tarib yurish. Dastlabki holat oyoqlar yelka kengligida qo'llar pastda gantel ushlagan holatda 100 metr yurish mashqi.

4-mashq: 100 metr masofaga yugurish.

5-majmua:

1-mashq: “Rope climb” – 3 metr balandlikda o'rnatilgan arqonga tirmashib chiqish va tushish.

2-mashq: “Ball slams” - dastlabki holat oyoqlar yelka kengligida 5 kg li slimbolni ko'krak baravarida ushslash holatidan slimbolni yuqoriga ko'tarish va zarb bilan yerga urish mashqini 20 soniya takrorlash.

3-mashq: “Box jump” - dastlabki holat tumba yonida turgan holatda uning ustiga sakrab chiqish va tushish mashqini 10 marotaba takrorlash. Tumba o'rnila o'rindiqlardan foydalansa ham bo'ladi.

4-mashq: 4x40 metr masofaga mokisimon yugurish. Dastlabki holat start chizig'i yonida turgan holatda 40 metr masofaga 2 marotaba borib kelish.

6-majmua:

1-mashq: “Knees to elbows” - turnikda tizzani tirsakka tekkizish. Dastlabki holat turnikda osilib turgan holatda tizzalarni ko'tarib tirsakka tekkizish va dastlabki holat. Mashqni 20 marotaba takrorlash.

2-mashq: “Heavy ropes” (argon silkitish) - og'ir arqonning ikki uchidan ushlab silkitishlar (bir qo'l yuqorida ikkinchisi pastda va almashtirib, ikkala qo'lda yuqoriga va pastga, yonga ham shu tarzda bir yoki ikki qo'llab). Mashqni 20 soniya davomida bajarish.

